Tarkibida qattiq zarrachalar bo'lgan 1 – saturasiya sharbatini vakuum-filtrlarda 2 pog'onada o'tqaziladi. Birinchi pog'onada cho'ktirgichlarda sharbat yoritilgan fraksiya (dekantat) va quyiltirilgan suspenziyaga ajratiladi. So'ngra qattiq zarrachalar konsentrasiyasi sharbatnikiga nisbatan 4-5 marta ko'p bo'lgan quyiltirilgan suspenziya, vakuum filtrlarda filtrlanadi. Vakuum-filtrlardan chiqqan filtrat va cho'ktirgichlardan chiqqan yoritilgan fraksiya birga aralashtirilib, nazorat filtrlarda filralanadi. 1 – saturasiya sharbatini filtrlash uchun suyuq fazalardagi qattiq zarrachalar og'irlik kuchi yordamida cho'kadigan gravitasion cho'ktirgichlar yoki filtr-quyiltirgichlar FiLS, quyiltirilgan suspenziyani filtrlashda esa barabanli kamerali BOU-40-3-10 vakuum filtrlari qo'llaniladi. Cho'ktirgichdagi dekantat, 2 – saturasiya sharbati va sirop bilan klerovka aralashmali diskali FD filtrlarda filtrlanadi.

Filtrlarda to'siqlar sifatida perforir listlar, zanglamas yoki rangli metallardan tayyorlangan setlar, sintetik va paxtadan tayyorlangan materiallar qo'llaniladi.

Saturasiya jarayonidan o'tkazilgan sharbatlar turli xil konstruksiyali

filtrlardan o'tkaziladi.

Filtrni unumdorligi deb, uning filtrlash tezligi  $S$  bilan xarakterlanadi, ya'ni  $1 \text{ m}^2$  filtrlash yuzasiga ega bo'lgan  $F_o$  orqali,  $\tau_{\text{daq}}$  ichida o'tadigan  $V$  filtrat miqdoriga aytildi.

$$C = \frac{dV}{F_o d\tau}$$

Filtrlash – girodinamik jarayon hisoblanib, uni tezligi filtrlash to'siqlarini ikki tomonidagi bosimlar farqiga tug'ri rrororsianal (jarayondagi harakatlantiruvchi kush) va hosil bo'ladigan cho'kma qalinligi tomonidan ko'rsatiladigan qarchilikka teskari rrororsianal.

Bosimlar farqi vakuum nasoslar va turli sistemalardagi suyuqlik nasoslari yordamida hosil qilinadi.

Filtrlash to'siqlaridagi qarchiliklar, suspenziya tarkibiga, cho'kmani qalinligi va tuzilishiga, suyuqlikn temreraturasiga bog'liq.

Cho'kmalar ikki turga bo'linadi; deformasiyalanmaydigan, ya'ni siqilmaydigan cho'kmalar, tarkibi asosan kristall zarrachalar va deformasiyalanadigan, ya'ni siqiladigan asosan kristallanmagan (amorf) zarrachalar.

Siqilmaydigan cho'kmada bosimni o'zgarishi bilan zarrachalarni joylashushi o'zgarmaydi, ya'ni bosimni o'zgarishi bilan suyuqlik o'tadigan g'ovoklar o'lchami ham o'zgarmaydi. Bunday sharoitlarda surenziyani filtrlash tezligi, suyuqlikka beriladigan bosimni ortishi bilan oshadi, bosim doimiy bo'lganda esa cho'kma qalinligiga bog'liq bo'ladi.

### **Sharbatni bug'latish bilan quyultirishdagi asosiy tushunchalar**

Tozalangan sulfitasiyadan o'tgan sharbat saharoza va shakarmaslarni to'yinmagan eritmasi ko'rinishda bo'ladi. Sharbatni quyultirish ikki etarda o'tqaziladi: birinshi sharbat bug'latish apparatida, so'ngra esa vakuum-apparatlarda quyiltiriladi.

Sharbatni quyultirish jarayonini ikki etapda o'tqazilishidan maqsad, birinshi

etapda sharbatni qovushqoqligi yuqori bo'lмаганлиги сабабли уни ко'п корпусли bug'latish apparatlarida o'tqazish mumkin. Bu esa o'z navbatida isitish bug'ini solishtirma sarfini 2,5 marta kamayishini ta'minlaydi, bundan tashqari, bu erdag'i ikkilamchi suv bug'larini kerakli texnologik jarayonlarda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, sharbatni quruqlik miqdori konsentrasiyasi ortishi bilan kalsiyli tuzlarni eruvchanligi pasayadi, kalsiy bikarbonatlar karbonatlarga aylanadi, redusiyalovchi va rang beruvchi moddalar miqdorlari ortadi. Shuning uchun siropni vakuum-apparatga uzatishdan oldin uning rangini sulfitasiya usuli bilan pasaytirish va tarkibidagi zarrachalarni filtirlardan o'tqazib tozalash kerak bo'ladi, shunda bu tozalangan siropni quruqlik miqdori 70% gacha bo'lib, uni qovushqoqligi deyarli yuqori emas.

Ikkinci etapda qovushqoq sirop quyuqlashtirilgandan keyin, uni bir martalik, ya'ni vakuum-apparatlarda bug'latiladi. Siropni vakuum-apparatlarda quyuqlashtirilganida, saharozani bir qismi kristallanadi, saharoza va saharoza kristallari orasidagi suyuqliklar aralashmasi utfel deb nomlanadi.

**Sharbatni quyultirishni texnologiyasi va tartiblari.** Bug'latish qurilmalarilar shakar zavodlaridagi asosiy issiqlik zveno va eng ko'p suv bug'i iste'molchisi hisoblanadi. Zaruriyatli tomoni e'tiborga olinganda, bug'latish qurilmalari zavodni texnologik va issiqlik sxemasidagi eng markaziy o'rinni egallaydi. Uni ishlashiga, zavodni ishlab chiqarish quvvati, yonilg'i sarfi, saharozani yo'qotilishi va shakarni mahsulot sifatining o'zgarishi bog'liq bo'ladi. Shakar zavodlarida qo'llanilayotgan bug'latish qurilmalari bug'latish pog'onalarini soniga qarab tasniflanadi, ya'ni uch, to'rt va besh korpusli bug'latish apparatlari. Bugungi kunda shakar zavodlariga keng qo'llanilayotgan bug'latish qurilmalari to'rt korpusli va konsentrator hisoblanadi. Hozirgi paytda bug'latish apparatlari sharbatni tabiy aylanish sistemasiga ega bo'lgan holda компановкаланаб ular quyidagi isitish yuzalariga ega 500, 600, 800, 1000, 1180, 1500, 1800, 2120, 2360, 3000 m<sup>3</sup>.

Bunday apparatlar (11-rasm) vertikal silindirik cocud ko'rinishida bo'lib,

uning ichida trubalar panjarasi va diametri  $33 \times 1,5$  mm (balandligi 3400-4300 mm) ga teng bo'lgan qaynatish trubalaridan tashkil topgan isitish kameralaridan tuzilgan. Apparatni trubalari orasiga isitish bug'i kiritilib, pastki qismidan isitish bug'inining kondensati, yuqori qismidan esa isitish bug'i bilan kirgan kondensasiyalanmagan gazlar chiqarib yuboriladi. Bug'lantiriladigan sharbat bug'latish apparatini trubalar panjarasini pastki qismidan kiritiladi va 1 isitish kamerasini qisman to'ldiradi. Qaynatish paytida (suv bug'lari pufakchalari hosil bo'lishi natijasida) sharbatni hajmi ortib, qaynatish trubalarini to'ldiradi va yuqorigi trubalar panjaralariga to'kiladi, pufakchalar yoriladi, bug' 2 korpusning 7 sharbat usti bo'shlig'iga yig'iladi, sharbat esa 10 sirkulatsion trubalar orqali pastga oqib tushadi. Quyultirilgan sharbatni bir qismi yangi kiritilgan sharbat bilan birga yana qaynatish trubalariga qaytib kiradi, qolgan qismi esa keyingi bug'latish apparatiga o'tqaziladi. Bug'latish apparati qaynatish trubalaridagi sharbatning sathi, apparatni yaxshi ishlashiga muhum rol o'ynaydi. To'rt korpusli bug'latish apparatlaridagi qaynamagan sharbatni optimal sathi quyidagisha bo'lishi kerak (qaynatish trubalarini umumiy balandligiga ko'pa % hisobida); I – 30 – 35; II – 35 – 40 ; III – 40 – 45; IV – 45 – 50; konsentratorda – 50 – 55. Apparatdagi sharbat sathini pasayishi isitish yuzasini yuqori qismiga sharbat etib bormay qoladi va natijada apparatni ishlab chiqarish quvvati pasayadi va eng muhimi isitish yuzasini sharbat bilan yuvilib turilmaganligi sababli sharbatni kuyishiga olib keladi. Agarda sharbatni sathi optimaldan yuqori bo'lsa, u holda issiqlik uzatish jadalligi pasayib sharbatning sirkulasiyasi qiyinlashadi, buning natijasida mahsulotni keyingi korpus isitish kamerasiga o'tib ketishi ro'y beradi.

**2.6. Quyultirilgan diffuziya sharbatini kristallah.** Diffuziya sharbatini kristallah – uni ishlab chiqarishdagi oxirgi tugallovchi bosqishi hisoblanadi. Bu etapda ko'p komponentli turli xil aralashmali siropdan, deyarli toza saharoza ajratib olinadi.

Sharbat tozalash bo'limida diffuziya sharbatidan shakarmaslarni  $1/3$  qismiga yaqini chiqariladi, qolgan qismi esa saharoza bilan birga mahsulot bo'limiga o'tib,

saharovzani katta qismi shakar kristallari ko'rinishida kristallanadi, shakarmaslar esa kristallar orasidagi eritmada qoladi.

Kristallizasiyalash texnologiyalarini takomillashtirishdagi asosiy yo'nalishlar, lavlagi tarkibidagi saharovzani maksimal darajada ajratishga, suv bug'uni kam sarflashga, shakar zavodlardagi vakuum-apparatlari suv bug'ini eng ko'p iste'molchilari bo'lganligi sababli yoqilg'ini tejashga ham qaratilgan.

### **Nazorat savollari.**

1. Kagatlarda lavlagi saqlashning texnologiyasin tushuntiring.
2. Lavlagidan sharbat qanday ajratiladi?
3. Saturasiya jarayonini tushuntirib bering.
4. Diffuziya sharbatini kristallash sxemasini tushintiring.
5. Utfel nima?

### **3-Mavzu: Tolali ekinlarni saqlash va dastlabki qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalari**

#### **REJA:**

- 3.1. Tolali ekinlarni saqlashning innovation texnologiyasi**
- 3.2. Chigitni tozalash, linterlash, delinterlash, saralash va dorilash jarayonlari**
- 3.3. PAXTA tozalash zavodlarida paxtani jinlashning texnologik jarayoni**
- 3.4. Kanorni saqlash va qayta ishlash texnologiyasi**

**Tayanch iboralar:** liniya, texnologik jarayon, texnologik rejim, presslash usuli, ekstraksiya usuli, rivojlanish bosqichlari, xalq xo'jalikdagi o'rni, endosperm, mag'iz, to'yingan yog' kislotalar, linolen kislota, linol kislota, to'yinmagan yog' kislotalar, uglevodlar, qobiq, xolva, kunjara, shrot.

#### **3.1. Tolali ekinlarni saqlashning innovation texnologiyasi**

Mamlakatimiz bugungi kunda paxta etishtirish bo'yicha dunyoda Xitoy, Hindiston, AQSh, Pokiston va Braziliyadan keyin 6-o'rinda turadi. Paxta tolasini eksport qilish bo'yicha esa O'zbekiston AQSh va Hindistondan keyin uchinchi o'rinda turadi. So'nggi yillarda respublikamizda tekstil sanoati rivojlanishi natijasida yildan-yilga paxta xomashyosini qayta ishlash hajmlari oshib bormoqda. 2012 yil natijalariga ko'ra 350 ming tonna tola (35%) o'zimizda qayta ishlandi. Xorijga 650-700 ming tonna tola eksport qilinadi. G'o'za texnik ekinlar ishida eng qimmatlisi hisoblanadi. U asosan tolesi uchun o'stiriladi. Paxta tolesi juda keng miqyosda va turli maqsadlarda ishlatiladi. Umuman, paxta ashyosi va o'simlikning turli qismlari xalq xo'jaligi uchun qimmatli xomashyo manbai hisoblanadi. 1 tonna chigitli paxtadan 340-350 kg tola, 50-60 kg momiq va 600 kg chigit olinadi. Bir tonna chigittan esa 170-220 kg moy, 380-400 kg kunjara, 50-60 kg momiq, 60 kg o'simlik oqsili, 300 kg sheluxa olinadi. Paxta tolasining o'ziga xos xususiyati boshqa tabiiy va sun'iy tolalarda uchramaydi. Shuning uchun ham u elastiklik xususiyatiga ega bo'lib, to'qimachilik dastgohlarida ular bir-biri bilan

yaxshi ulanadi. Paxta tolasidan to'qimachilik sanoatida keng foydalanib, har xil gazlamalar to'qilishidan tashqari, undan g'altak ip, arqon, chilvir, baliq tutadigan to'r, tasma, transportyor tasmalari, rezina shlanglar uchun mahsus to'qimalar, filtrlar, elektr simlarining ustini o'raydigan to'qima va boshqalar tayyorlanadi. Ayrim paxta navlarining tolasidai avtomobil shinalarida qistirma (прокладка) uchun ishlatiladigan mahsus kord to'qimasi, shuningdek, parashyut qilinadigan material, kirza va boshqa narsalar tayyorlanadi. Paxta tolasidan foydalanib sellyuloid, foto-kino tasmalar, laklar, eng yuqori sifatli yozuv qog'ozlari va boshqa ko'plab xilma-xil materiallar hamda buyumlar tayyorlanadi. Ipak gazmollarni to'qishda paxta tolasini ularga aralashtirib ishlatish mumkin. Paxtaning chigit ham nihoyatda qimmatli mahsulot hisoblanadi. Tolasi ajratib olingan chigitning bir qismi ekish uchun, asosiy qismi esa xilma-xil mahsulotlar, xususan moy olishda ishlatiladi. Chigit moyi oziq-ovqatga ishlatiladi, shuningdek, texnik maqsadlari uchun foydalaniadi. Tozalangan chigit moyi konserva sanoatida keng ko'lamda qo'llaniladi, shuningdek, undan margarin, kirsovun, atirovun, texnika moyi, alif tayyorlashda ham foydalaniadi. Chigit moyidan gliserin, stearin va boshqa bir qancha mahsulotlar olinadi. Nihoyat, g'o'za sershira (serosal) o'simliklardan hisoblanadi, gektaridan 100-200 kg asal olish mumkin. Shuning uchun g'o'za paykallari yaqinida bemalol asalarichilikni rivojlantirish mumkin, lekin, bunda g'o'za zararkunandalariga qarshi zaharli ximikatlar sepishda ehtiyyot choralarini ko'rish shart, albatta. Paxta tolasidan, chigitidan va o'simlikning boshqa qismlaridan hammasi bo'lib 1200 dan ortiq turli xil mahsulotlar olinadi.

Yetishtirilgan paxta hosilini nes-nobud qilmay o'z vaqtida yig'ib-terib olish o'ta muhim agrotexnik tadbir hisoblanadi. Ko'pgina hollarda g'o'za maydonlarida 25-30% ko'sak oshilgandan terimga tushish oqibatida, to'liq etilmagan, yaxshi ochilmagan ko'saklar paxtasi terilib, paxta hosili salmog'i va sifati pasayishiga olib kelinmoqda. Paxta hosilini yig'ib-terib olish muhim agrotexnik tadbir bo'lgani uchun unga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Paxta hosilini sifatli terib olishda eng avvalo dalani tanlash va tayyorlash lozim. G'o'za dalalarini paxta hosilini terib olishga tanlashda avvalo ekish muddatlariga e'tibor qaratish darkor. G'o'zada

o'rtacha 40-50% ko'saklar ochilgan maydonlar aniqlanib, eng avvalo sifatli defoliasiya o'tkazilishi kerak. Defoliasiyadan 10-12 kun o'tgach dala paxta terimiga tayyorlanadi. Buning uchun har bir dalaga texnika kirish yo'llari tayyorlanadi. Sug'orish ariqlari ko'milishi, dala atrofi va ichida olingan o'qariqlar tekislanishi kerak. Har bir fermer xo'jaligining umumiylar maydonini inobatga olib 30-50 gektarga bitta paxtani quritish maydonchasi tayyorlanadi. Dala atrofidagi aylanma maydonidagi paxtalar o'rib olinib, tirkamalar yurishi uchun qulaylik yaratish lozim. G'o'za dalasidagi o'qariq va suv yo'llari yorilgandan so'ng, dalaning 5 nuqtasidan konvert usulida 10 tadan o'simlik namunasi olinib, ushbu o'simliklardagi jami ko'saklar soni va shundan ochilgani sanab chiqiladi. Namunadagi 10 o'simlikda mavjud ko'saklarning 80-85% ochilgan bo'lsa, ushbu dalada 12 yig'im-terim ishlarini boshlashga ruxsat etiladi. Masalan: 10 ta o'simlikda jami 150 ta ko'sak bo'lib, shundan 120 tasi oshilganligi aniqlansa, dala terimiga tayyor hisoblanadi. Paxta yig'im-terimini uyushqoqlik bilan o'tkazish o'ta kuchli tashkilotchilikni talab etadi. Buning uchun esa har bir gektarga talab etiladigan terimchilar sonini to'g'ri belgilash lozim. Joylarda ushbu tadbirga yuzaki qaralishi oqibatida katta (10-20 hektarlik) maydonlarda 5-6 kishi paxta terimiga tushirilish holatlari kuzatiladi. Vaholanki, paxta maydoni har bir konturidagi hosil dalaning katta-kichikligidan qat'iy nazar 2-3 kunda terib olinishi shart. Dalada terimchilar soni quyidagisha belgilanadi. Aprobasiyada hosildorlik 25 s/ga ni tashkil etgan bo'lsa, 1-terimga 80% ko'saklar ochilganda kirishish rejallashtirilsa, demak 20 s/ga yoki gektariga 2 t paxta hosili 1-terimda terib olinadi. Daladagi hosil 3 kunda yig'ib-terib olinadigan bo'lsa, gektaridan 650-700 kg paxta terib olinishi lozim. Har bir terimchi o'rtacha kuniga 65-70 kg paxta terish imkoniyati borligini inobatga olsak, har bir gektarga 10 ta dan kam bo'limgan terimchi jalb qilinishi kerak. Demak, 10 gektarlik konturda 100 kishi, 20 gektarlikka 200 kishi va hokazo. Shuning uchun har bir fermer xo'jaligi 1-terimda gektarini inobatga olib terimchilarni bir guruhga to'plashi va terimni to'g'ri tashkil etishi shart. Paxta hosilini sifatli terib olishda terimlar orasidagi muddat katta ahamiyatga ega. Birinchi terim bilan ikkinchi terim orasi

10-12 kunni, ikkinchi terim bilan uchinchi terim orasi 15-18 kunni tashkil etishi shart. Aks holda paxta xomashyosi to'liq pishib etilmay terib olinib, salmog'i kamayib, sifatini pasayishiga olib keladi. Paxta hosilini yig'ib-terib olishda terimchilar ishini nazorat qilishni muvofiqlashtirish o'ta muhimdir. Buning uchun egat uzunligi 50-60 metrdan uzun bo'lgan erlarda, har 50-60 metrdan keyin terimchilarni qatorga qo'yish lozim. Ya'ni, dalani bo'lak-bo'lak terib olish yaxshi samara beradi. Buning uchun har 100 m. da shel va o'qariq o'rni tekislanib, prisep-tirkamalar yurish yo'llari tayyorlanishi shart. Paxtani terib olishda o'lchovlar soni va muddatini to'g'ri belgilash muhimdir. Eng yaxshi usul har 2 soatda bir o'lchov o'tkazish usuli bo'lib, bunda kuniga 5-6 marta o'lchov o'tkaziladi. Paxta dalasidan terib olingan hosil to'g'ri quritish maydoniga olib kelinib, kamida bir sutka quritilishi va undan so'ng paxta tozalash zavodi yoki qabul punktlariga topshirilishi lozim.

Texnik ekinlariga turli tarmoqlarni xomashyo bilan ta'minlovchi qishloq xo'jalik ekinlari kiradi. Ular orasida:

-to'qimachilik sanoatida ishlatiladigan tolali ekinlar (q. zig'ir, paxta, kanop, jut va boshqalar.);

-oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan moyli ekinlar (soya, kungaboqar, zaytun, moyli palma), kraxmal tashuvchilar (kartoshka, makkajo'hori, guruch), shakar tashuvchilar (shakar qamish, qand lavlagi), tetiklashtiruvchi (choy, qahva, loviya, kakao loviya), ziravorlar, tamaki;

-kimyo sanoatida ishlatiladi (rezina tashuvchilar, bo'yash, konchilik, dorivor o'simliklar va boshqalar).

Yengil sanoati uchun kanop, pilla, jun va ayniqsa, kimyoviy tolalar ko'plab ishlab chiqarilishiga qaramasdan, paxta tolasi hajmi to'qimachilik sanoati uchun asosiy mahsulot bo'lib qolmoqda.

Tolali ekinlar orasida paxta eng keng tarqalgan. U paxta momig'i, matolar, sun'iy kigiz va boshqalarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Paxta tropik va subtropik iqlim zonalarida etishtiriladi. Jahonda paxta tolasining yalpi hosili 25,2 mln. tonnani tashkil etadi.

Paxta tolasining eng yirik ishlab chiqaruvchilari Hindiston (6,18 mln.t.), Xitoy (6,17), AQSH (3,6) va Pokiston (2,4 mln. t.) hisoblanadi. Bu mamlakatlar ham paxtaning asosiy eksportchilari hisoblanadi.

O'zbekistonda paxta etishtirish yil sayin ortib borishi munosabati bilan paxta sanoatida paxtani dastlabki ishlash texnologiyasini mukammallashtirish va yangi texnika-texnologiya bilan qurollantirish, ko'p mehnat talab qiladigan og'ir ishlarni mexanizasiyalash va avtomatlashtirish sohasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xomashyo bazasi o'sishi bilan bir qatorda ko'pgina yangi paxta zavodlari va paxta tayyorlash punktlari qayta qurilib, paxtani qayta ishlash mexanizmlari yangi zamonaviy asbob-usukunalar bilan jihozlandi. Bu esa tayyorlanadigan paxta mahsulotlarining sifatini yanada yaxshilash imkonini bermoqda.

Ma'lumki, respublikamizda har yili 3 million 400 ming tonnadan oshirib paxta etishtirilmoqda. Shuncha paxtadan 1 million tonnadan oshiq paxta tolsi olinadi. Bu olinayotgan tolalarning asosiy qismi horijiy davlatlarga shartnomaga asosida sotilmoqda. O'zbekiston paxta tolsi jahon bozorida ham birmuncha raqobatbardosh bo'lib, bu sohada nufuzli o'rirlarni egallab kelmoqda. Ayniqsa, g'o'zaning Buxoro-6, Buxoro-8, Buxoro-102, S-6527, Namangan-77 kabi navlari paxtasining tola sifati yuqori ko'rsatkichni berib, mahsus sifat yorliqlari olishga erishilmoqda.

Har yili Toshkentda o'tkazilayotgan Halqaro «Paxta» yarmarkasining o'tkazilishidan asosiy maqsad, kelgusida rivojlangan mamlakatlar paxta sanoati texnologiyalarini olib kirish, ularning tajribalaridan keng foydalanish, bu sohada O'zbekistonni jahon miqyosiga ko'tarish va etishtirilayotgan paxtaning asisiy qismini o'zimizda qayta ishlab, paxta tolasini sotishda barcha ishlarni vositashilarsiz amalga oshirishni tashkil qilish ko'zda tutilgan. «Paxta» yarmarkasida jahonning 35 dan oshiq davlatlaridan vakillar va eng yirik mutahassislar tashrif buyurishadi. Ular o'z bilim va tajribalari bilan o'rtoqlashadilar, sohada bajariladigan kelgusi ishlar rejasid kelishib olinadi.

Paxtadan to'qilgan gazlamaning sifatlari bo'lishi, birinshi navbatda tolanning muayyan darajada moslashgan texnologik xususiyatlariga, ya'ni uning uzunligiga,

pishiqligiga, ingichkaligiga, nisbiy uzulish kuchiga bog'liq. Tola qanchalik ingichka, pishiq va uzun bo'lsa, shunchalik qimmatli bo'ladi, undan eng yaxshi gazlamalar to'qiladi.

Paxta tolasidan turli xil mahsulot olinishini ko'zda tutgan holda to'qimachilik sanoati tolaga va undan olinadigan mahsulotga bir qancha talablar qo'ygan. To'qimachilik sanoati o'z rejasiga binoan tolaga sifat ko'rsatgichlari bo'yicha buyurtma beradi.

Yetishtirilayotgan paxta tolsi sifati jihatidan 9 ta tipga ajratiladi. Har bir tip uchun alohida uzilish va shtapel uzunligi ko'rsatkichlari belgilangan. Bu ikki ko'rsatgich tolani tiplarga ajratishda asosiy belgi hisoblanadi. Bundan tashqari har bir tola tipiga qalinligi (metrik raqami) va uzulish kuchi ko'rsatkichlari mos kelishi kerak.

Dunyo miqyosida g'o'za o'simligi asosan tolsi uchun ekib kelinadi. Paxtani qayta ishslash jarayonida undan tola, chigit va lint ishlab chiqiladi. Bu mahsulotlar kundalik hayotimizda, sanoatda, tibbiyotda va texnik maqsadlarda keng foydalaniladi.

Paxta tolasidan faqat ip ishlab chiqarilmay, balki undan avtomashina shinalarida ishlatiladigan kord, transportyor tasmasi, filtr va hokazolar ishlab chiqariladi. Paxta chigitidan esa lint, yog', kunjara va sheluxa olinadi. Sheluxasidan spirt va boshqa kimyoviy mahsulotlar tayyorланади. Paxta lenti, ayniqsa sellyuloza, sun'iy irak, organik shisha, karton va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Paxta eng arzon va keng tarqalgan mahsulot hisoblanadi. Har yili butun dunyoda tayyorlanadigan barcha to'qimachilik tolalarining qariyb yarmini paxta tolsi tashkil qiladi. Paxtani qayta ishlab (tozalab), tola (30-40%), chigit (60-70%) va momiq olinadi. Chigit tarkibida esa 22-28% gacha moy bo'ladi.

G'o'za bargi, poyasi va po'stlog'idan 100 dan ortiq, paxta tolasidan 50 ga yaqin, chigitidan 45 dan ortiq turli xil mahsulotlar olinadi. Paxta mahsulotlaridan sanoatning ko'pgina tarmoqlarida (to'qimachilik, aviasiya, kimyo, medisina, avtomobil va boshqa sohalarda) keng foydalaniladi.

Bir tonna chigitli paxtadan 350-380 kg tola, 550-570 kg chigit, 50-120 kg momiq olinadi. 1 kg toladan 5 m gazlama yoki 140 ta g'altak ip ishlab chiqariladi. 1 ga erda etishtirilgan paxtadan o'rtacha hosildorlik 30 sentner bo'lganda shuncha mahsulotdan 7-8,5 ming m gazlama, 270 kg paxta moyi, 730 kg kunjara, 47 kg sovun, 108 kg momiq, 240 kg chigit va boshqa mahsulotlar olinadi.

Shunday ekan, paxta etishtirishni rivojlantirish bilan birga paxta sanoatida paxtani ishslash texnologiyasini mukammallashtirish va yangi texnika, texnologiya bilan qurollantirish, ko'p mehnat talab qiladigan ishlarni mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish sohasida katta ishlar qilinmoqda.

### **Paxtani paxta punktlarida saqlash qoidalari**

Paxta asosan sentyabr, oktyabr va noyabr oylarida tayyorlanadi. Paxta tozalash zavodlari shu ush oy davomida bir mavsumda tayyorlangan paxtaning taxminan 20% ini ishlay oladi. Paxtaning qolgan ko'p qismini uzoq vaqt saqlashga to'g'ri keladi.



**13-rasm. Paxtani usti yoriq omborlarda saqlash tartibi.**

G'aramlash maydonshalarining o'lchamlari 25x14, 22x11 va 11x10m bo'ladi. Paxta joylanadigan g'aram maydonlari er yuzidan 40 sm balandlikda qattiq

to'shama (asfalt, beton yoki somon loy) bilan qorlanishi kerak. G'aram maydonshasining o'rtasida tunnel qazish vaqtida to'g'ri yo'nalishni belgilash uchun bo'ylanma tilimi shizib ko'rsatiladi. Boshqa o'lchamdagি g'aram maydonshalari qurilishi tavsiya etilmaydi.

Paxtani maydonshalarda g'aramlash faqat havo quruq paytida olib boriladi, yomg'ir yoqqanda g'aramlash taqiqlanadi. G'aramga to'kilgan paxta maydonning hamma joyiga bir tekis va bir xil qalinlikda joylashtirilishi lozim. G'aramlangan paxtaning balandligi (uning cho'kishigacha) sanoat navi va namligiga qarab quyidagi jadvalda ko'rsatilgandagidek bo'lishi kerak.

#### **9-jadval**

#### **G'aramning cho'kishigacha ruxsat etiladigan balandligi.**

<b>Paxta navi</b>	<b>Paxtaning namligi, %</b>	<b>G'aramning balandligi ko'rsatilgan m dan ortmasligi kerak</b>		<b>G'aramdagi paxta vazni, t</b>
		<b>Havo so'rg'ish qo'llanilmaganda</b>	<b>Havo so'rg'ish qo'llanilganda</b>	
I	9 gacha	8	-	<b>400</b>
I	9,1-12	-	8	<b>350</b>
I	12,1-14	-	7	<b>300</b>
I	14 dan ortiq	-	6	<b>250</b>
II	10 gacha	8	-	<b>370</b>
II	10,1-13	-	8	<b>300</b>
II	13,1-16	-	7	<b>250</b>
II	16 dan ortiq	-	6	<b>200</b>
III	11 gacha	7	-	<b>350</b>
III	11,1-15	-	7	<b>300</b>
III	15,1-18	-	6	<b>250</b>
III	18 dan ortiq	-	6	<b>230</b>
IV	<b>13 gacha</b>	<b>6</b>	-	<b>300</b>
IV	<b>13,1-17</b>	-	<b>5</b>	<b>250</b>
IV	<b>17,1-20</b>	-	<b>4</b>	<b>200</b>
IV	<b>20,1-22</b>	-	<b>3</b>	<b>15-</b>

Namligi 20% dan ortiq raqta QTTS (quritish-tozalash tsexi) yonida joylanadi,

chunki bunday paxtalar ushlab turilmasdan zudlik bilan quritilishi va qayta ishlanishi lozim.

Namligi 14% gacha bo'lgan paxtani TS (tozalash tsexi) mintaqasida, 14% dan ortiq bo'lganini esa QTS mintaqasida joylash kerak. Paxta g'aramining shakllanishi va cho'kishidan so'ng uning yon hamda burchak tomonlari terib tekislanadi.

Paxtani g'aramlash vaqtida uning g'aram maydonshasining yuzasida bir tekisda joylanishiga va zich shibbalanishiga e'tibor berish kerak. G'aramning zichlanadigan shekkalari doimo g'aramning o'rta sathidan pastroq bo'lishi lozim.

*quyidagi hollarda g'aramlar mustahkamligi etarli darajada bo'lmaydi va ular qulaydi:*

- paxtaning pastki va keyingi qatlamlari etarli darajada shibbalanmasa;
- g'aram burchaklari noto'g'ri joylansa va etarli darajada shibbalanmasa;
- g'aramning butun yuzasi emas, balki oralari o'zaro yaxshi bog'lanmagan qismlar bo'yicha joylansa;
- bir kesha-yu kunduz davomida g'aramlangan paxtaning miqdori ruxsat etilgan me'yoridan 60-65 tonnadan oshirib yuborilsa.

Paxta g'aramlanganda uning balandligi 2,0-2,5 m bo'lgan gumbazsimon qalpoq bilan shunday yakunlanadiki, qalpoqning bosh qismi ikki tomonlama nishabni yopish uchun g'aramning o'rtasidan ko'ndalangiga o'tishi lozim.

Paxta g'aramlangandan so'ng asta-sekin cho'kadi va 10-15 kundan keyin balandligi 1-1,5 m pasayadi. Oshiq maydonlarda saqlanadigan paxtani yopish uchun  $8,5 \times 7,0$  m o'lchamli brezent qo'llaniladi. G'aramlarda saqlanadigan urug'lik paxta yangi yoki birinchi toifali brezentlar bilan yopilishi kerak. G'aramlarda 1 ta brezent o'rta hisobda 30 t paxtani yopishi mo'ljallanadi. G'aramni ortiqcha brezentlar bilan yopish ma'n etiladi.

Saqlanayotgan xom paxta navini pasaytirish yo'nalishida o'z holatini tez-tez o'zgartirib turishi aniqlangan. Buning sabablari juda ko'p va ulardan biri g'alayonda xom paxta zichligining ko'payishi va notekis zichligi deb hisoblanadi. Zichlikning oshishi xom paxtaning havo o'tkazuvchanligining yomonlashishiga

olib keladi va bu, o'z navbatida, tabiiy biologik pishib etish jarayonlarining o'zgarishiga, tolaga zamburug'lar va bakteriyalarning intensiv o'sishiga olib keladi, bu esa tola va urug'lar sifatining pasayishiga olib keladi.

Shu munosabat bilan mahsus saqlash taklif qilindi [3], bu xom paxtani g'alayonda saqlashdan oldin uni erkin ommaviy holatda qayta ishlashni osonlashtiradi. Paxta xomashyosini mashinada yig'ib-terib olishga o'tish bilan ignabargli mahsulotning sifat tarkibi ham o'zgardi. Mashinada terilgan xom paxta, qo'lda terilgan xom paxtadan farqli o'laroq, tiqilib qolish, namlik oshdi va bo'laklar sho'zilgan shaklga ega.

Xom paxtani mavjud yig'ib-terib olish va saqlash tahlili shuni ko'rsatdiki, yuqori namlik va tiqilib qolgan xom paxtani yonilg'i bilan ishlash xom paxtani saqlash uchun sifatini saqlab qolish holatidan tayyorlash muammosini qisman hal qilishi mumkin. Quritish jarayoni xom paxtaning namligini kamaytirish muammosini, asosan tola va qobig'ini quritish orqali hal qiladi. Namlikning asosiy tashuvchisi bo'lgan urug'lar qisman suvsizlanib qoladi va eng muhimi, ularning hayotiy faoliyati pasaymaydi, namlik va issiqlik chiqishi bilan nafas olish jarayonlari bilan birga keladi. Bunday sharoitda harorat va namlikni kamaytirish uchun profilaktika choralarini qo'llash kerak. Bu tadbirlar xom paxta bir isyon tanadan chiqib havo so'rish jarayonida kamayadi.

Xom paxtani qayta ishlashning mavjud texnologik reglamentlarida dastlabki yarim kunlik ishlar (quritish, tozalash va boshqalar) ko'zda tutilmagan saqlanishidan oldin namligi 20% gacha bo'lgan xom paxta. Shu bilan birga, texnologik reglamentlarda xom paxtani soha yaqinida 20% va undan ortiq namlikda vaqtincha saqlash va shoshilinch quritish (uch kundan kechiktirmay) ko'zda utilgan bo'lib, soha tarkibida mashinalar majmuasi, shu jumladan 2 sb-10 (CEO) quritish barabani ko'zda utilgan. Amalda xom paxtaning ko'p miqdorda bo'lishi, yuqori namlik va quritish zavodlarining unumдорлиги pastligi tufayli xom paxta 2-3 oy davomida vaqtincha saqlanadi va toylab turiladi.

Xom paxtani saqlashga tayyorlash uchun taklif etilayotgan texnologiya, shuningdek, siqilgan xom paxtani uzoq muddat saqlash vaqtida xom paxtaning

sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolish mexanizmini ta'minlamaydi. Shunday qilib, texnologiyani amalga oshirishda xomashyoni o'z-o'zini muhrlash jarayonlari va ombor mahsulotining ishchanligi, shuningdek, paxta xomashyosini saqlash paytida mexanik ta'sirlarning ko'pligini hisobga olmaydi va ularni optimallashtirish masalalarini hal qilmaydi. Xom paxtaning amalda maksimal zichligi  $350 \text{ kg/m}^3$  ga etadi, bu quyi ko'rsatkichlardan hosil bo'lgan eng yuqori zichlikdir.

Tadqiqotlar [5,6] bunday zichlik bilan DST talablariga binoan xom paxtaning texnologik xususiyatlarining yomonlashishi sodir bo'lmasligini aniqladi. Haqiqiy, talab qilinadigan, mexanizasiyalashgan zichlash sharoitida xom paxtaning zichligi  $250\text{-}300 \text{ kg/m}^3$  ga ( $0.15\text{-}0.20) * 105 \text{ n/m}^2$  solishtirma bosimga erishiladi. [7] da xom paxtani 240, 300 va  $350 \text{ kg/m}^3$  zichliklar ichida majburiy siqilishi tolaning sifati va xom paxta naviga putur etkazmasligi aniqlangan. Shu bilan birga, xom paxtaning siqilgan massasi uning yaroqlilik muddatini hisobga olmaganda, sifat tahliliga uchramasdan, majburan qayta ishlanganligini hisobga olish kerak.

Shunday qilib, xom paxtaning siqilgan massasini saqlash muddatining uning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha o'ziga xos roli to'g'risida savol ochiq qolmoqda.

Eksperiment metodikasi. Qabul qilish va saqlashning texnologik jarayonida zichlikning xom paxtani saqlashga ta'sirini o'rganish uchun isyonning "modeli" yaratildi (rasm. 1), bu saqlangan paxta tanasida sodir bo'ladigan haqiqiy jarayonlarni stimulyasiya qilishga imkon beradi. "Model" ni yaratishda [8] bayon etilgan metodologiyaga asosan tartibsizliklar va omborlarda saqlash sharoitlari hisobga olingan. [9.10] ga ko'ra, hajmning quyi qatlamlari hajmiy zichlikka =  $300\text{-}350 \text{ kg/m}^3$ , yuqori qatlamlari esa =  $80\text{-}110 \text{ kg/m}^3$  ega. Shu haqiqatni hisobga olgan holda, shuningdek, tadqiqot uchun "model" dan namunalar olish zarurligini hisobga olgan holda, xom paxtaning blokdagi eng kichik miqdorini aniqlanadi. (= 12-16 kg), hajm "modeli" hajmi esa massaning asl xususiyatlarini saqlab qoladi. Xom paxta – 80-85% ga.


Shunday qilib, o'rtacha  $0,0002 \text{ kg}$  bo'lgan varaqaning o'rtacha og'irligiga va 1 ta varaqadagi 12-15 ming donadan iborat tolalar soniga asoslanib, biz har bir blokda  $0,6 \times 105$  dan ortiq varaqalar va  $0,7 \times 109$  ta tolalar ishtirok etishini olamiz.

"Model" ning shakllanishi belgilangan zichlikdagi bloklarni olish uchun  $500 \times 350 \times 300$  mm o'lchamdagি mahsus ishlab chiqarilgan mexanik qo'lda pressda amalga oshirildi.

1 metall ramkada tayyorlangan kichik o'lchamdagи press quyidagisha ishlaydi. Berilgan zichlikka ega bo'lган "model" olish uchun xom paxta Lyuk 2 orqali quti 3 ga yuklanadi. Yo'naltiruvchi подшибник 4 da aylanuvchi vint 5 dastak 6 bilan harakatlanadi. Vint 4 harakatlanganda yuqori plastinka 7 xom paxtani pastki plastinka 8 ga bosadi. Keyin eshiklar 9 oshiladi va natijada olingan idish – "ma'lum zichlikka ega "model" bog'lanadi va qutidan chiqariladi. "Model" uchun xom paxta C-6524 navidagi Mustaqillik paxta fabrikasida saqlanayotgan g'alayondan qo'lda  $1/2$ , 3-4% tiqilib, namligi 9,2% bo'lган holda tanlab olindi.

1) = $110 \text{ kg/m}^3$ ; 2) = $250 \text{ kg/m}^3$ ; 3) = $330 \text{ kg/m}^3$ .

Uning shakllanishi jarayonida va o'rnatish balandligiga qarab, ma'lum bir zichlikka ega "model" yaratildi. Masalan, zichligi =  $330 \text{ kg/m}^3$  bo'lган pastki qatlamlar, o'rta qatlamlar =  $250 \text{ kg/m}^3$ , yuqori qatlamlar =  $110 \text{ kg/m}^3$ . G'alayonning bu "modeli" 2-rasmda ko'rsatilgan. To'polonning har bir "modeli" ning vazni 10000-11500 kg ni tashkil etdi.



**Chigitli paxta va tolanning sifat ko'rsatkichlari**

Paxta zavodiga topshiriladigan paxtalarda ko'plab miqdorda turli xil yet aralashmalar bo'ladi. Paxtani qayta ishlashdan oldin ular tozalanadi. Agar ma'lum miqdora paxta namunasini olib qarasak, unda normal etilib pishgan tolalardan tashqari, xas-cho'p aralashgan va nuqsonli tolalar ham borligini ko'pamiz. Bunday nuqsonlar biologik va mexanikaviy bo'lib, ular g'o'zaning o'sib rivojlanishida, paxta zavodlarida paxtani dastlabki ishlashda va ba'zan ip yigiruv fabrikasida paxtadan ip olishda paydo bo'ladi. Bunday nuqsonlar ko'p bo'lsa, paxtaning qiymati pasayadi, va uning sifati yomonlashadi, yigirish va to'qish jarayonlarida ko'proq uziladi, natijada mashinalarning ish unumi pasayadi.

Paxtadagi asosiy xas-cho'plar va nuqsonlar quyidagilar:

**Iflosliklar** – maydalangan barglar, shanoqlar, g'o'za shoxlari va h.k. bular tolalarga yorishgan holda bo'lib, ularni yo'qotish ansha qiyin hisoblanadi.

**Tolali o'lik** – paxta tozalashda paydo bo'lgan uzuq tolalar, maydalangan xas-sho'plar va etilib pishmagan, tolalari turlicha paxmaygan chigitlardan iborat aralashma.

**Kasallangan va zararlangan tolalar** – g'o'za o'simligi kasallangan bo'lsa (biologik nuqson) va paxtani paxta zavodida hamda ip yigiruv fabrikalarida ishlashda (mexanikaviy nuqson) hosil bo'lishi mumkin.

**Maydalangan chigit** (chigit bo'lakchalari – paxtani dastlabki ishlashda hosil bo'ladi. Ular yanada maydalanib, tolalar yopishgan ros'shalarga aylanishi mumkin. Bunday nuqson yigiruv fabrikalari uchun eng zararli nuqson bo'lib, yigirilgan ipda ham uchrashi mumkin.

**Tolalar yopishgan ros'shalar** – zararli nuqsonlardan hisoblanib, paxtani dastlabki ishlashda chigitlarning maydalanishi natijasida, titish va savash mashinalarida hosil bo'ladi. Bular tolaga mahkam yopishib oladi va ularni ajratish ancha qiyin. Shuning uchun bunday nuqsonlarning kelib chiqish sabablarini aniqlab, ularni kamaytirish zarur.

**Tugunchalar** – chigallanib qolgan tolalarning kichik guruhi; paxtani dastlabki ishlashda va savash-tarash jarayonida hosil bo'ladi. Bunday nuqsonlar ip yigiruv jarayonida ham tamoman yo'q bo'lmaydi.

Jingalaklar – bo’shgina o’ralashib qolgan tolalar guruhi. Bunday nuqsonlar tarash mashinasida taralganda yozilib ketishi mumkin.

**Jgutiklar** – bir-biriga mahkam o’ralashib qolgan tolalar guruhi bo’lib, ular ip yigirishda ancha qiyinchiliklar tug’diradi va ularning bir qismi chiqindiga aylanadi, natijada ipning chiqishi kamayadi.

Bunday nuqsonlarning ko’pchiligi, asosan, paxtani dastlabki ishlashda hosil bo’ladi, shuning uchun paxta tozalash zavodlarining ishini yaxshilash bunday nuqsonlari kamaygan tola etkazib berishda katta ahamiyatga ega.

Olimlar olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasi shuni ko’rsatadiki, g’o’za o’sish va etilish davridayoq ikki xil qurt ta’sirida kasallanib zararlanar ekan. Zamburug’ va bakteriyalar ham paxta tolasini qattiq zararlantirishi aniqlangan. Paxtani terish, tashish, saqlash va qayta ishlash paytlarida ham paxta tolasi zararlanadi.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasiga ko’ra, paxta tolasining biologik va mexanikaviy zararlanishi ma’lum darajada tolalarning biologik zararlanish darajasiga qarab, ularning pishiqligi 15-68% gacha, mexanikaviy zararlanish darajasiga qarab esa 12-70% gacha kamayar ekan.

Paxta tolasining rivojlanishi asosan 2 davrdan iborat. Har qaysi davr qulay sharoitda 25-30 kundan davom etadi. Birinchi davrda tola asosan bo’yiga o’sib boradi va g’o’zaning naviga xos bo’lgan uzunlikka erishadi. Asosiy tola bu davrning 15 kuni ishida o’zining haqiqiy uzunligining yarmigacha etadi, tolanning bo’yiga o’sishi birinchi davrda deyarli to’xtaydi.

Ikkinci davrda tolanning ichki sellyuloza qatlamlari paydo bo’lib, tola pisha boshlaydi. Sellyuloza qatlaming hosil bo’lish jarayoni 50 kungacha davom etishi mumkin.

Tolanning pishganlik darajasi odatda undagi sellyuloza qatlaming qalinligi bilan aniqlanadi. Sellyuloza qavatlarining qalinligi g’o’za nava va uni etishtirish sharoitiga qarab turlicha bo’lishi mumkin. Tola ichida sellyuloza miqdori qancha ko’p yig’ilsa tola shuncha yaxshi etilgan bo’ladi. Chanoq ochilgandan keyin tola quriydi, uning devorlari bir-biriga yopishgan tasmasimon shaklni oladi hamda

unda jingalaklik hosil bo'ladi. Tolaning etilish darajasi ortgan sari u shunchalik ko'p jingalaklanadi. Paxta tolasi pishgan sari uning tashqi diametri ichki diametriga nisbatan oshadi va u ***pishganlik koeffisiyenti*** deb ataladi.

Chigitni uning tolalari bilan birga chigitli paxta yoki летушка deb aytiladi.

Uzun tolalar (yaxshi etilgan) летушка massasining 30-40% ni, qisqa tolalar-momiqlar 3-4% ni, chigitning o'zi esa 56-57% ni tashkil qiladi.

Normal rivojlangan ko'sakda ayrim tolalar yoki летушкalar yaxshi rivojlanmagan bo'lishi mumkin. Urug'lanmagan urug'kurtak va undan o'sa boshlagan tola tez vaqt ishida o'sishdan to'xtab, nobud bo'ladi. Natijada o'lik urug'kurtak paxta quriganda qisqa tolali tuguncha shaklida bo'ladi, buni odatda mayda o'lik deyiladi. urug'langan urug'kurtaklarning rivojlanishdan qolishi natijasida yirik o'lik vujudga keladi.

Ushbu texnologik ko'rsatkichlar bo'yicha paxta tolasi sifatining yo'qolishi, bundan tashqari, tolalar sinfini bundan kelib chiqadigan barcha oqibatlar bilan kamaytiradi. Ushbu tadqiqotlarda, paxta xomashyosining zichligi uni saqlash va saqlash jarayonlarida o'zgarganda, yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki,tolaning asosiy fizik-mexanik xususiyatlarda sezilarli o'zgarish yuz beradi, bu kelajakda yigiruv jarayonining o'ziga ham, tolanning o'ziga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ishlab chiqarilgan ipning xususiyatlari va sifati.

Ip mustahkamligining tola uzunligi, mustahkamligi va chiziqli zichligiga bog'liqligi Prof. A.H. Соловьевning taniqli formulasi bilan ifodalanadi [12]. Eksperimental tadqiqotlar natijalariga ko'pa, kutilgan ipning kuchi olingan fizik-mexanik xususiyatlarga qarab hisoblab chiqilgan (jadval-2) qatlam-qatlam ishlov berilgan paxta massasi. Shu bilan birga, hisoblash va qiyosiy tahlil siqilgan paxta navlari bo'yicha taqdim etiladi.

Ipning kuchini kamaytirish omili birinchi navbatda tola uzunligining pasayishi va qisqa ipsiz tolanning ko'payishi bilan izohlanadi. Chiziqli zichlikning teng qiymatlari bilan tolanning xom paxta qatlamlari orqali mustahkamligi, bu holda uning uzunligining kamayishi ip mustahkamligining kamayishiga olib keladi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, saqlanadigan xom paxta zichligi oshishi bilan,

urug’lar orasida joylashgan tolada kontakt kuchlanishlarining ko’payishi natijasida uning tuzilishi o’zgaradi, bu esa ishlov berish paytida mashinalarning ish organlarining mexanik ta’siri ostida shtapel uzunligining pasayishiga olib keladi. tolalar.

### **Paxta tolasining texnologik xususiyatlari.**

Paxta tolasini qaytaishlashda va to’qimachilik sanoatida foydalanishda uning texnologik xususiyatlari muhim o’rinni egallaydi.

Tolaning texnologik qimmati uning bir qator xususiyatlarining majmuasi bo’lib, ulardan asosiyлари geometrik, mexanik va fizik xossalari hisoblanadi.

Tolaning uzunligi va ko’ndalang kesim o’lchamlari uning geometrik xossalari, pishiqligi, elastikligi va boshqa ko’rsatkichlari mexanik xossalari, issiqlikka chidamliligi, nam o’tkazish va bir qator kimyoviy muddalarga munosabati uning fizik-kimyoviy xossalari bildiradi.

Paxta tolasining texnologik xususiyatlaridan uning uzunligi, ingichkaligi, pishiqligi, buraluvchanligi, elastikligi, uzhish uzunligi, tola shiqishi vatolaning pishib etilishi sanoat hamda ishlab chiqarishda katta ahamiyatga ega. Paxta tolasining asosiy xossalari undan olinadigan ipning xossalariiga bevosita ta’sir qiladi.

**Tolaning uzunligi** – tolanning o’rtacha uzunligi uning texnologik ko’rsatkichlari orasida sifatini belgilovchi asosiy ko’rsatkich hisoblanadi. Paxta tolasining uzunligi to’qimachilik sanoatida yigirish sistemasini aniqlashda muhim omil sanaladi. Uzunroq tolalardan ingichka va pishiq ip ishlab chiqariladi.

Tolaning uzunligi deb, to’g’rilangan tolanning ikki uchi orasidagi masofani tushuniladi va u millimetrdha o’lshanadi. Bir namunada turli xil uzunlikdagi tola bo’lishi mumkin. Shuning uchun tolanning uzunligi tushunchasi bir tola uchun emas, balki umumiy namunadagi tolalarning o’rtacha uzunligi bilan ifodalanadi. Ekiladigan g’o’zalarda tolanning uzunligi 18-22 mm dan 45-50, hatto 55-60 mm gacha bo’lishi mumkin.

Mamlakatimizda ko’p miqdorda ekilayotgan o’rta tolali g’o’zaning ko’pgina navlarida paxta tolasining uzunligi 30-33 mm, ayrimlarida 35-37 mm ga etadi, ingichka tolali navlarda 38-42 mm gacha va undan ham oshiq bo’lishi mumkin.

Tolaning uzunligini qo'lida ham aniqlasa bo'ladi. Bunda namunadan bir tutam tola olinib, chizg'ichda ularning uzunligi o'lchanadi. Odatda,tolaning uzunligini «Velvet» taxtashasida aniqlanadi.

Har bir namuna paxtada ayrim tolalarning uzunligi turlicha bo'lganligi sababli yigirish tizimini tanlash uchun kerakli tola uzunliklarining o'rtacha ko'rsatkichlarini aniqlash kerak bo'ladi. Shuning uchun tola uzunligini aniqlovchi o'rtacha massa uzunligi, modal va shtapel uzunligi, tola bazasi va uzunligi jihatidan tekisligi kabi tushunchalar kiritilgan.

***Tolaning o'rtacha mahsus uzunligi*** – deganda namunadagi tolalarning o'rtacha uzunligini ularning massasiga ko'paytirib, namunaning umumiyligi massasiga nisbati tushuniladi.

***Model uzunligi*** – tola namunasidagi eng ko'p uchraydigan tola uzunligidir.

**Shtapel uzunlik** – deganda modal uzunlikdan katta bo'lган uzunlik guruhlarining o'rtacha qiymati tushuniladi.

Tolaning bazasi modal uzunlikka yaqin tolalarning qanchalik ko'p yig'ilishini xarakterlaydi, ya'ni olingan paxta tolalarning uzunlik jihatidan tekislik darajasini belgilaydi.

Tolaning uzunlik jihatidan tekisligi har xil tirdagi paxta tolalarining modal uzunligining bazaga ko'paytmasi bilan topiladi. Agar tolaning tekislik qiymati 1000 bo'lsa, tola uzunlik jihatidan tekis hisoblanadi.

***Tolaning buraluvchanligi*** – tolaning buraluvchanligi uning 1 mm. ning buralish darajasi bilan aniqlanadi. Buraluvchan tolalardan ip yigirilganda ular bir-biri bilan o'zaro yaxshi birikib, ipning pishiqligi ortadi.

Mamlakatimizda ekiladigan o'rta va ingichka tolali g'o'za navlarining har 1 mm da tolesi 10-12 marta buraladi. Ingichka tolali g'o'za navlari tolasining buraluvchanligi o'rta tolali g'o'zalar tolasiga nisbatan bir necha marta ko'p bo'ladi. Tola buralishining tola bo'yiga bir tekisda bo'lishi katta ahamiyatga ega.

Tolaning buraluvchanligi pishmagan va yaxshi rivojlanmagan tolalarmikiga qaraganda ziyod bo'ladi.

Tolaning buraluvchanligini namunaga qarab baholash, tolani kattalashtirib

chizish, chizg'ichda buralgan tolanning uzunligini o'lchash, kurvimetrik yordamida uning haqiqiy uzunligini aniqlash yo'llari bilan aniqlanadi. Uning necha marta buralganligini sanash ham mumkin.

**Tolaning pishganligi** – uning sifat ko'satkichlaridan biri bo'lib, tola devorlarida sellyuloza qavatlarining paydo bo'lish darajasiga qarab aniqlanadi. Tolaning pishiqligi tuproq va iqlim sharoitiga, shuningdek, qo'llaniladigan agrotexnik tadbirlarga, ekilgan navga qarab ma'lum darajada o'zgaradi.

Tolaning tasmasi kengligining uning kanali kengligiga nisbati tolanning pishganligini xarakterlaydi. Tolaning pishganligini aniqlash uchun tola mahsus mikroskop ostiga qo'yiladi va tola pishish shkalasiga solishtiriladi. Shkalada tolanning pishganligi 0 dan 5 gacha, 0,5 tadan qilib bo'lib 11 ta gradasiyada ko'rsatiladi.

Shkalada o'lik tolanning koeffisiyenti 0,0, o'ta pishgan tolaniki esa 5,0 deb qabul qilingan. Yaxshi rivojlangan tolanning pishganlik koeffisiyenti 2-2,5 raqami bilan ko'rsatiladi.

Paxta tolasining pishganligini qutblangan yorug'lik yordamida ham aniqlash mumkin. Buning uchun polaroid P-2 deb ataladigan mahsus moslama bilan har qanday mikroskopni ishlatish mumkin.

Tolalar polaroid orqali qutblangan yorug'likda qaralganda qizil rang ichida ular pishganlik darajasiga qarab turli rangda ko'rindi.

**Tolaning chiziqli zichligi (tolanning ingichkalgi)** – deb, tolanning uzunlik birligidagi massasi tushuniladi. Halqaro birliklar sistemasida tolanning chiziqli zichligi **teks** larda ifodalanadi.

Teks tushunchasi 1 km uzunlikdagi tolanning massasi necha gr. ekanligini ko'rsatadi.

Tola ingichkaligi metrik raqami bilan ham ifodalanadi, metrik raqam deganda 1 g tolanning metr hisobidagi yoki 1 mg tolanning millimetrik hisobidagi umumiyligi uzunligini bildiradi.

Tolaning chiziqli zichligini shtapel (bir tutam tola) ni buyum oynalariga qo'yilib, mikroskopda solinadi va tarozida tortilib aniqlanadi.

**Tolaning uzilish kuchi** – 1 ta tolani cho’zganda gr. hisobida qancha kuch sarf qilinganligi shu *tolaning uzilish kuchi* deb yuritiladi va gr./kuch (g/k) yoki n’yuton bilan ifodalanadi. Tolaning uzilish kuchi uning pishiqligini va uzunasiga cho’zuvchi kuch ta’siriga chidamliligini bildiradi. Shuning uchuntolaning uzilish kuchi uning devorchalarining qalinligiga bog’liq. Tolaning uzilish kuchi ko’pgina boshqa texnologik ko’rsatkichlar bilan bog’liq. Shu sababli chigitli paxtaning va tolanning navini aniqlashda uzilish kuchi asosiy aniqlovchi texnologik ko’rsatkich qilib qabul qilingan.

Odatda pishgan tolanning uzilish kuchi o’rtacha 4,7 g/k ga teng bo’ladi. Mamlakatimizda etishtiriladigan o’rta tolali g’o’za navlarida tolanning uzilish kuchi 4,2-5,5 g/k gacha, ingichka tolali navlarda esa 4,6-6,0 g/k bo’ladi.

Tolanning uzilish kuchining uning chiziqli zichligiga nisbati *tolaning nisbiy uzilish kuchi* deb yuritiladi. Tolaning uzilish kuchini LPS-4 asbobida yoki polyarizasion uslda ham aniqlasa bo’ladi.

**Tola chiqishi** – chigitli paxtadan olinadigan asosiy mahsulot tola hisoblanadi. *Tola massasining chigitli paxta massasiga nisbati tolanning chiqishi* deyiladi. Bunda tolanning chiqishi uning massasiga va chigitning to’qligiga qarab o’zgaradi.

Har bir chigitdagi tola miqdori g’o’zaning turiga va naviga qarab o’zgaradi. Shu bilan birga u tuproq va iqlim sharoitlariga hamda agrotexnik tadbirlarga ham bog’liq.

Ekiladigan g’o’zalarning chigitli paxtasidan 20-50% gacha tola chiqadi. Mamlakatimizda ekiladigan o’rta tolali g’o’za navlarida tola chiqishi 32-40%, ingichka tolali g’o’zalarda 30-34 % atrofida bo’ladi.

Laboratoriya chigitli paxtadan tola chiqishini paxtani 10 arpali laboratoriya jinida tozalanib, so’ngra tarozida tortilib toriladi. Paxta ishlangandan keyin momiq va tolali chiqindilar hamda iflosliklarni alohida o’lshab, ularning chiqish miqdori aniqlanadi.

Tolanning chiqishini aniqlovchi ko’rsatkich sifatida chigitli paxtaning tolalik darajasi – tolalik indeksi xizmat qiladi. Chigitli paxtaning tolalik darajasi (indeksi) deb, 100 dona chigit (tolasidan) ajratib olingach tolanning gramm hisobidagi

massasiga aytildi.

Chigitli paxta quritilib tozalangandan so'ng paxta tozalash zavodining bosh korpusiga jinlash uchun jo'natiladi. Jinlash paxta tozalash zavodida paxtani dastlabki ishlash jarayonida asosiy bosqish hisoblanadi.

**Jinlash** deb – paxta tolasini chigitdan ajratish jarayoniga aytildi. Jinlash tsexi paxta zavodining asosiy tsexi hisoblanib, bu erda chigitli paxtadan tola va chigit ajratib olinadi. Chigitli paxtadan tola ajratishda tolating chigitga birikish kuchi, uning tabiiy sifatlarini saqlab qolish va mashinani yuqori ish unumi bilan ishlatish katta ahamiyatga ega.

O'rta tolali paxtadan tola ajratishda **arrali jinlar** ishlatiladi. Chunki, bu xil chigitli paxtalarning tolasi chigitiga mustahkamroq birikkan bo'lib, mashina yuqori ish unumi bilan ishlaganda ham uning tabiiy sifatlari o'zgarmaydi.

Ingichka tolali paxtalarning tolasi nozik va chigitga bo'shroq birikkanligi uchun uning sifatini pasaytirmaslik maqsadida bu xil paxtalar **valikli jinlarda** ishlanadi[4].

Arrali jinning asosiy ish organi arrali silindr bo'lib, u 80-120 ta arra disklardan tashkil topadi. Aylanib turadigan silindr arralariga chigitli paxta bir necha marta urilib chigitdan tola ajraladi.

Chigitli paxtani jinlashda quyidagi texnologik talablar qo'yiladi: chigitlardan yaroqli tolalarning hammasini ajratish, jin ishchi organlarining tola va chigitga ta'siri natijasida turli nuqsonlar paydo bo'lmasligi, chigitli paxtaning jindan chiqqan tola va chigit bilan aralashib ketmasligi, o'lik va iflos aralashmalardan tozalash samaradorligi yuqori bo'lishga erishish lozim. Jinlash jarayonida tolada bir qator nuqsonlar (chigit po'shog'i yopishgan tolalar, uzilgan va shikastlangan tolalar, tugunchalar, buralib qolgan tolalar, gajaklar, puch chigitlar) paydo bo'lishi mumkin. Bu esa tolating texnologik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

### **3.1. Chigitni tozalash, linterlash, delinterlash, saralash va dorilash jarayonlari**

Paxta tozalash zavodlarida jinlash davomida toladan ajratilgan chigitlar yirik qum, xas-cho'plar, metall parchalari va mayda toshlar bilan ifloslanadi. Bundan

tashqari, puch va etilmagan chigitlar bo'ladi. Ayniqsa mashinada terilgan paxtaning chigitida ko'p iflosliklar uchraydi. Shu sababli chigitni linterlashdan oldin u yaxshilab tozalanadi. Bu esa lintning iflosligini kamaytiradi.

Lintning sifatli bo'lishi chigitning yaxshi tozalanishiga bog'liqdir. Shuning uchun linterlash jarayonidan oldin chigitni tozalashga katta ahamiyat berish kerak. Jinlashda, chigitli paxta tarkibidagi iflosliklarning bir qismi tola bilan qo'shilib, qolgan qismi esa chigitga aralashgan holda linterning ish kamerasiga tushadi. Jindan chiqayotgan chigit tarkibida yirik qum, mayda toshchalar va tasodifan qo'shilib qolgan metall qismlari bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, chigit tarkibida puch va pishib etilmagin chigitlar bo'lganligi uchun bular texnologik jarayonda mashina qismlarining ta'siri bilan maydalani, bo'linib ketadi va arra tishlariga ilinib qolganlari lintga aralashgan holda ajralib chiqib, lintni ifloslantiradi. Ayrim hollarda chigitga tolasi to'la ajratilmagan yakka chigitli paxta ham qo'shilishi mumkin.

*Chigitdan katta tolalar (lint) ni ajratish linterlash jarayoni deb ataladi.* Jinlash jarayoni to'g'ri amalga oshrilgandagina o'rta tolali paxtaning chigitida 11-15% (chigit og'irligiga nisbatan) lint qoladi. Ingichka tolali paxtaning chigitida esa kamroq, ya'ni 3-5% lint qoladi.

O'rta tolali paxta chigitdan turli xil lint olish va olinadigan lint miqdorini oshirish maqsadida bu paxta chigit ketma-ket uch marta linterlanadi. Ingichka tolali paxtaning chigit bir marta linterlanadi. Birinchi linterlash mashinlarida asosan uzun va qisman kalta lint ajraladi. O'zRST ga asosan chigitdan olingan lintning I tipiga uzunligi 20 mm dan ortiq bo'lgan, II tipiga uzunligi 14-15 mm dan 19-20 mm gacha, III tipiga 7-8 mm dan 13-14 mm gacha, IV tipiga 6-7 mm va undan qisqa tuklar kiradi. Linterlar yuqori ish unumida ishlaganda I tip lint olib bo'lmaydi, faqat chigit jindan tukliroq chiqib, linter juda kam foiz lint ajratib ishlangandagina bu lintni olish mumkin. Ikkinci marta linterlashda chigitdan II va III tip lint olinib, uchinchi marta linterlashda asosan IV tip lint olinadi.

Chigitdan faqat 0,3% miqdorda lint ajratilgandagina uzunligi 20 mm bo'lgan I tip lint olinadi. Lint ajratishning miqdori 2,5% dan oshib ketganda lint sifatining

yomonlashishi ko'p tajribalarda ko'rilgan. Demak, lintning sifatli bo'lishi ta'minlash maqsadida uni chigitdan 2,5-3% dan ko'p bo'lмаган miqdorda ajratish qulayroqdir. Shuning uchun chigitdagi 10-11% lintni sifatli qilib, to'la miqdorda ajratib olish maqsadida chigitni 3 marta linterlash jarayonida PO-160, PMP-160 rusumli linterlar ishlatalib, III-linterlash jarayonida esa 3 SOM, 4 SOM va PKX rusumli linterlar qo'llaniladi.

Linterlash jarayonida lintni ajratish asosiy ko'rsatgich hisoblanadi. Agar jindan chiqqan chigitning tukliligini bilan va chigitning linterlash jarayonidan keyingi tukliliqi bilan belgilasak, bularning ayirmasi linterlash jarayonida ajratilgan lint miqdorini ko'rsatadi:

Linter ishlab chiqarish ko'rsatgichida 1 soatda hosil qilingan (kg hisobida) lint ham asosiy o'rinni egallaydi. Bir linterdan 1 soatda o'tkazilgan chigit miqdoriga qarab, linterning chigit o'tkazish qobiliyati aniqlanadi. Ajratiladigan lint miqdori, chigitning mashina ish qismlari ta'sirida bo'lgan vaqtga bog'liqdir, ya'ni chigit mashina ish qismlari ta'sirida qancha ko'p tursa, shuncha ko'p lint ajratib, mashinaning ajratish qobiliyati ortadi. Paxta zavodlarining ishlab chiqarish quvvatiga, ya'ni o'rnatilgan jinlarning soniga qarab, linterlarning soni belgilanadi va ularning har bir batareyasiga kerakligicha transport uskunalarini va yordamchi mashinalar o'rnatiladi. Chigitdan belgilangan me'yordagi lintni ajratib olish uchun jinlarning linterlarga bo'lgan nisbati quyidagisha bo'lishi lozim:

Birinshi batareya linterlari uchun – 1:1,5;

Ikkinshi batareya linteri uchun – 2:1,5;

Ushunshi batareya linterlari uchun – 1:2.

Shunday qilib, uch qayta lint ajratish uchun jinlarning linterlarga bo'lgan umumiyligi nisbati 5 bo'lishi kerak (bu nisbat hozirgi ishlatilayotgan linterlarning ish unumi asosida olingan bo'lib, yuqori ish unumli yangi linterlar o'rnatilganda bular o'zgarishi mumkin). Shu nisbat bo'yicha 4 jinlik paxta zavodida 20 linter (I linterlash batareyasi uchun – 6 linter, II linterlash batareyasi uchun – 6 linter va III linterlash batareyasi uchun – 8 linterlar) bo'lishi kerak.

**Linterlarning turlari.** Paxta zavodlarining lint tseylariga quyidagi linterlar

o'rnatilgan bo'lishi mumkin. Havo bilan ajratuvchi 140 arrali XLF rusumli, 160 arrali PO-160 va PMP-160 rusumli linterlar.

Cho'tkali, 141 va 161 arrali XLM rusumli linterlar, konstruksiyasi eskirib qolganligi tufayli, paxta sanoatida juda kam uchraydi. PMP-160 rusumli linter yaxshi ko'rsatgichlarga ega bo'lganligi uchun 1961 yildan boshlab mashinasozlik zavodlari bu linterlarni ko'plab ishlab chiqarmoqda. Bu turdag'i linterlarning tuzilishi, asosiy ish qimslari va detallari jin qismlariga o'xshashdir. Jinda ham, linterda ham arrali silindr asosiy qism hisoblanadi. Arrali silindr jinda chigitdan tolani ajratish vazifasini bajarsa, linterda esa chigitdan lint va delintni qirib olish vazifasini bajaradi. Jinning xomashyo kamerasi bilan havo sorlosiga o'xshash qismlar linterda ham bo'lib, bular bir-biridan juda kam farq qiladi. Paxtachilikda kvadrat uyalab chigit ekishning joriy qilinishi chigitdagi tuklarning batamom tozalanishini talab qiladi. Bundan tashqari, qo'shimcha ajratilayotgan lint kimyo sanoati uchun qimmatbaho xomashyo ekanligini e'tiborga olib, keyingi yillarda chigitni delinterlaydigan mashinalar ihtiyoq qilinadi. Bunday mashinalar turiga PKX, 3 SOM va 4 SOM rusumli delinterlash mashinalari kiradi. Chigitni delinterlash mashinalaridan, asosan III linterlash jarayonida foydalanilib, urug'lik va texnik chigitlar shularda ishlanadi.

Chigitni tozalash natijasida linterlash jarayoni yaxshilanadi, lint sifatlari bo'lib, tola isrof bo'lmaydi va chigit uzoq vaqt saqlanganda ham sifati buzilmay, uni keyingi ishslash, ya'ni saralash, dorilash va moy sanoatida ishlatish osonlashadi.

Lint ishlatiladigan sellyuloza sanoati va shu kabi boshqa sanoat tarmoqlarida ham uning sifati yuqori bo'lishi talab etiladi.

Linterlash jarayonidan keyin lintni tozalash joriy qilinmaganligi va bu masala yuzasidan yaqin vaqtlardan boshlab ilmiy-tekshirish ishlari olib borilayotganligi sababali hozir chigitni linterlashdan oldin tozalashga asosiy e'tibor berilayotir.

Markazdan qochirma kuch ta'sirida ajratib olingan momiq kameradan chiqarilgandan so'ng havo oqimi yordamida siklon yoki kondensorga yuboriladi.

Delinterlangan chigitlarning miqdori orta borishi va ularning bir-biri bilan aralashishi natijasida chigitlar suriladi va mashinadan chiqariladi.

Ta'minlagichning avtomatik ravishda mashinaga chigit berishi natijasida chigitli valikning zichligi ta'minlanadi.

Mashina quvvati 28 kVt, aylanish tezligi 1460 ayl/daq. bo'lgan AO-73-4 rusumli 2 ta elektr dvigateli bilan reduktor orqali harakatga keltiriladi.

Po'lat simdan yasalgan cho'tkali barabanlarning bir tomonga aylanishi natijasida simlarning bir tomoni edirilib, ish unumi kamayar va uni shlifovka qilish talab qilinar edi, shular hisobga olinib 4SOM rusumli mashinaning barabanlari vaqtı-vaqtı bilan istalgan tomonga (o'ng yoki shar tomonga) aylantiriladigan qilingan, bunda simlarning ushi barobar edirilib silliqlash talab qilinmaydi. Mashina soatiga 500 kg gacha chigitni delinterlay oladi.

Yuqori barabanlardan olingan momiqning iflosligi 7-9% bo'lib, bu umumiy ajratilgan momiqning 60-75% ni tashkil qiladi. Pastki barabanlardan olingan momiqning iflosligi juda yuqori – 30-35%.

Bu 2 turdag'i olingan momiq to'r o'lchami  $3 \times 30$  mm bo'lgan o'lik tozalash mashinasida tozalanib, uning iflosligi 4-5% gacha kamaytiriladi.

Ko'pchilik paxta zavodlarida ishlatilib kelinayotgan XLF va PMP-160 rusumli linterlar faqat 1 va 2-lint ajratishda ishlatiladi, bunda chigitlardan 6% gacha lint ajratilib, lintning qolgan qismi (7-8%) PKX va 3 SOM, 4 SOM rusumli mashinalarda ajratiladi.

PKX rusumli delinterlash mashinasi halqali delinterlagishlardan iborat bo'lib, 4 ta tayanch rolikga o'rnatilgan aylanuvchi barabandan tashkil topgan, uning ishiga 4 ta aylanuvchi arrali silindr va kurakli val o'rnatilgan. Chigitning barabanga kirish qismida taqsimlash kamerasi o'rnatilgan.

Barabanga chigit berish miqdorini va kurakchalarining holatini o'zgartirish bilan mashinaning ishlashi tartibga solinadi.

Chigitni tuksizlash jarayoni quyidagi tartibda bajariladi.

Arrali linterlarda 2 qayta linterlangan, tukliligi 7-8% bo'lgan chigitlar ta'minlagich yordamida aylanuvchi barabanga beriladi, bunda chigit markazdan qochirma kuch ta'sirida barabanning 2 devori bo'ylab zikh chigit halqasini hosil qiladi. Aylanuvchi 4 ta arrali silindr chigit halqasini yorib o'tib undan delintni qirib

ajratadi.

Arralar chigitli halqadan shiqqanda o'zi bilan momiqni olib chiqib baraban o'rtasiga tushiradi, bu erda havo oqimi ta'sirida ajratkich kamerasiga va u orqali kondensorga yuboriladi. Delinterlangan chigit kurakli val yordamida baraban ichidan chiqariladi. Bu mashinaning ish unumi (5-6% delint ajratilganda) soatiga 1400-1500 kg gacha chigitni ishlay oladi. Mashinada ajratilgan delintning uzunligi o'rtacha 3-4 mm ni tashkil etadi.

### **Chigitni dorilash.**

Paxtadan yuqori hosil olish maqsadida urug'lik chigitlar qishloq xo'jalik zarakunandalari va kasalliklariga qarshi dorilar bilan ishlanadi.

G'o'zalar gommoz, ildiz chirish va tuproq ostidagi chigitlarni chirib ketishdan va zararkunandalardan saqlash uchun tubandagi dorilar bilan ishlanadi: Orten, Gaucho, Marshal, Tigam, Bronokat, Nikamizalon, Vitovaks, Rarkol, Panoktin va h.k.

Chigitlarni dori bilan ishlash quruq yoki ho'l usulda va chigit sirti shu dorilar quyuq eritmasini surish yo'li bilan ham bajarilishi mumkin. Urug'lik chigitlarni dorilar bilan ishlashni o'z vaqtida, ya'ni ekishga ikki haftadan ko'p vaqt qolganda bajarish kerak.

Tukli urug'lik chigitlarni dorilash uchun SP-3M rusumli mashina ishlatiladi.

O'rta tolali va ingichka tolali chigitlar tuksizlantirilgach, ularni ho'llab dorilash uchun 20 SX mashinasini ishlatiladi. Bu usulda chigitlarni dorilash uchun ularni oldin suv bilan namlanib, kukun dori sepib, yaxshilab aralashtiriladi.

Kondenserdan chiqayotgan tolaning hajmiy og'irligi kondenserning konstruksiyasiga qarab  $15-30 \text{ kg/m}^3$  atrofida bo'ladi. Kondenserdan chiqqan tolani bu holda saqlash yoki tashishda yong'in chiqish xavfi bo'ladi. Bundan tashqari, presslangan tola tez ifloslanadi. Presslanmagan tolani saqlashda omborlar hajmidan samarali foydalanmaydi, shuningdek, transport vositalaridan, yuk ortish, yuk tashish mexanizmlaridan to'liq foydalanish mumkin bo'lmaydi. Shuning uchun paxta zavodlarida tola mahsus presslarda zichlanadi va toyланади (1,2,3,7). Bunday toylangan tolani uzoq saqlash va to'qimachilik fabrikalariga yuborish ko'p jihatdan

qulaydir. Shu maqsadda har bir paxta zavodida press tsexlari bo'lib, ularda gidro press uskunalarini o'rnatilgan bo'ladi. Hozirgi vaqtada paxta zavodlarida ishlatilayotgan B-374, B-374 A rusumli presslarda tola 20-30 marta zichlanadi va toylanadi. Toylangan tolaning hajmi og'irligi  $530-550 \text{ kg/m}^2$  bo'ladi.

Bunday toylangan tolalar temir yo'l vagonlariga ortilganda, vagonlarning yuk ko'tara olishidan 95% gacha foydalaniladi. Bu esa transport vositalaridan foydalanish koeffisiyentini oshiradi. Presslash jarayonida paxta toyining atrofi qor yoki mahsus mato bilan o'raladi va sim yoki temir tasma bilan bir necha joyidan bog'lanadi. Toy holatdagi tolani ko'tarish, yuklash va tushirish ishlarini mexanizasiyalashtirish qulaydir. Lint va tolali chiqindilarni toylash ham katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun har bir paxta zavodida lint va tolali chiqindilarni toylash uchun mahsus presslar o'rnatiladi. Ilgari paxta zavodlarida kam quvvatli gidravlik yoki mexanik (vintli) presslardan foydalinar edi. Bu presslarning quvvati 75 t dan 200 t gacha bo'lib, ulardan chiqqan toyning hajmi og'irligi  $200-300 \text{ kg/m}^3$  dan oshmas edi. Keyingi vaqtarda press konstruksiyasini takomillashtirishga oid ko'p ishlar qilindi va barcha paxta zavodlaridagi eski rapesslar yangi, quvvati 430-480 m presslar bilan almashtirildi. Lint va tolali chiqindilarni toylash uchun ishlab chiqarish quvvati ko'p bo'lgan paxta zavodlarida yangi B-374 rusumli press o'rnatilgan bo'lib, kam quvvatli paxta zavodlarida esa tolani toylashdan bo'shagan eski rusumli, quvvati kam presslardan foydalanimoqda.

### **3.2. PAXTA tozalash zavodlarida paxtani jinlashning texnologik jarayoni**

Chigitli paxta quritilib tozalangandan so'ng paxta tozalash zavodining bosh korpusiga jinlash uchun jo'natiladi. Jinlash paxta tozalash zavodida paxtani dastlabki ishlash jarayonida asosiy bosqish hisoblanadi.

**Jinlash** deb – paxta tolasini chigitdan ajratish jarayoniga aytiladi. Jinlash tsexi paxta zavodining asosiy tsexi hisoblanib, bu erda chigitli paxtadan tola va chigit ajratib olinadi. Chigitli paxtadan tola ajratishda tolaning chigitga birikish kuchi, uning tabiiy sifatlarini saqlab qolish va mashinani yuqori ish unumi bilan

ishlatish katta ahamiyatga ega.

O'rta tolali paxtadan tola ajratishda **arrali jinlar** ishlatiladi. Chunki, bu xil chigitli paxtalarning tolasi chigitiga mustahkamroq birikkan bo'lib, mashina yuqori ish unumi bilan ishlaganda ham uning tabiiy sifatlari o'zgarmaydi.

Ingichka tolali paxtalarning tolasi nozik va chigitga bo'shroq birikkanligi uchun uning sifatini pasaytirmaslik maqsadida bu xil paxtalar **valikli jinlarda** ishlanadi.

Arrali jinning asosiy ish organi arrali silindr bo'lib, u 80-120 ta arra disklardan tashkil topadi. Aylanib turadigan silindr arralariga chigitli paxta bir necha marta urilib chigitdan tola ajraladi.

Ta'minlagich valikning ikkinchi uchidagi tishli g'ildirak bilan ikkinchi valikning o'qiga o'rnatilgan tishli g'ildirak ilashgan.

Ta'minlagish valiklarning aylanish tezligi ( $Z_2$ ) tishli g'ildirakning diskadagi qaysi aylana bilan ulanishiga bog'liq. Bu 9 tishli g'ildirak diskning markaziga yaqin joylashgan teshiklar bilan bog'liq bo'lsa, disk tez aylanadi va ta'minlagishga ko'p paxta tushadi. Ta'minlovchi valiklarning aylanish soni diskning tishlari qatoriga qarab keltirilganicha o'zgaradi.

### **Arrali jinning texnologik jarayoni.**

Iflos aralashmalardan tozalangan va yaxshilab tilgan chigitli paxta ta'minlagich novidan jinning ish kamerasiga tushadi. Jinning ish kamerasiga joylashgan chigitli paxta arrali silindrning aylanishi natijasida xomashyo valigini hosil qiladi.

Arrali jinning asosiy ish organi hisoblangan arrali silindr oralariga mahsus qistirmalar qo'yilgan 80 tadan 130 donagacha arra diskalaridan yig'ilgan bo'lib, 1 daqiqada 730 marta aylanadi. Bu silindr aylanganida uning arralari xomashyo valigi bilan uzluksiz uchrashib turadi va arra tishlariga ilingan yakka chigitli paxtalarni колосник panjara tomon olib boradi.

Arra tishiga ilingan tolalarning bir qismi chigitdan ajralib колосник orasidan o'tib ketadi. Yakka chigitli paxta esa qolgan tolalari bilan xomashyo valigida aylanishini davom ettiradi, chunki, chigitning ko'ndalang qirqimi колосниклар ish

qismi orasidagi (oraliq) dan katta bo'lgani uchun u erdan o'ta olmaydi. Uzib olingan tola esa arra tishida jinning sorlosi tomon keladi, bu erda sorlodan chiqqan havo oqimi ta'sirida arra tishidan ajralib jinning bo'g'zi orqali batareyaning tola trubasiga kelib tushadi, bu erdan esa batareya kondensoriga uzatiladi.

Sorloning ustida o'siq козыреки bo'lib, u toladan o'lik va yirik iflos aralshamlarning ajralishini rostlab turadi. Ajratilgan o'liklar va iflos aralashmalar o'lik konveyeriga tushib, jindan tashqariga shiqib ketadi. Xomashyo valigida yakka chigitli paxta arrali silindr bilan bir necha marta uchrashgandan keyin chigitdagi uzun tolalar batamom ajratib olinadi. Tolasidan ajralgan chigitlar esa arralar orasidan колосник va pastki nov orqali chigit konveyeriga kelib tushadi.

Xom ashyo valigining harakati, tolani ilib va uzib olish jarayonidan iborat.

Jinni ishga tushirishda колосник panjarani ko'tarib qo'yib, ta'minlagish ishga tushiriladi va jinning xomashyo kamerasi chigitli paxta bilan to'ldiriladi. Колосник panjara ko'tarilgan holatda turganda arra tishlari колосниклар sirtidan chiqib turmasligi kerak.

Xomashyo kamerasi chigitli paxta bilan to'lgandan so'ng ta'minlagishdan tushayotgan chigitli paxta oqimi vaqtincha to'xtatiladi va колосник panjara astagina ish holatiga keltiriladi. Bunda aylanib turgan arralar колосниклар orasidan o'tib, jinning ish kamerasiga 47 mm chiqib turishi kerak. Arraning xomashyo kamerasidan chiqib turishini rostlash bilan bir qatorda колосник panjaraning orqa tomoni bilan arralar orasidagi qistirmalar tashqi yuzasi orasidagi bo'shliq ham tekshiriladi.

Колосник panjara ish holatiga keltirilgandan so'ng xomashyo kamersining ichidagi chigitli paxta aylanib, xomashyo valigini hosil qiladi. Shundan keyin ta'minlagich ishga tushiriladi va chigitli paxta xomashyo kamerasiga bir tekisda tushib turadi. Shundan so'ng jinlash jarayoni uzlusiz davom eta boshlaydi.

Ta'minlagichdan bir tekis tushayotgan chigitli paxta xomashyo valigining tashqi tomonini hosil qilgan va toiasi ajratilgan chigitlar chigitli paxtaning yangi qatlami orasida qolayotgani uchun xomashyo valigi markaziga yaqinlashgan sari chigitdagi uzun tolalar kamayib boradi. Agar arra chigitning hamma tolasini

колосник panjaraning ich qismida ajratib olsa, u chigitning umumiyl Paxta massasi bilan aloqasi yo'qoladi. Shuning natijasida bunday chigitlar arralar orasidan колосник panjara ustiga tushib, undan sirg'anib pastga tushib ketadi. Xomashyo valigining aylanish tezligi arrali silindrning aylanish tezligiga, xomashyo valigining zichligi va uning tuzilish shakliga, valik bilan kamera yuzasi orasidagi ishlanish kuchiga, ta'minlash tartibiga va jinning ish unumiga bog'liq.

Xomashyo valigining aylanish tezligi, arrali silindrning aylanish tezligiga qaraganda bir necha marta kam bo'ladi.

Agarda xomashyo valigining bosimi faqat arrali silindrning tishlariga tushgan holdagina, uning tezligi arralar tezligiga teng bo'lar edi. Haqiqatda esa, uning bosimi kameraning ichki devorlariga ham tushganligi uchun bu erda ishqalanish kuchlari hosil bo'lib, ular paxtaning aylanishiga qarchilik ko'rsatganligidan xomashyo valigining aylanishiga qarshilik ko'rsatganligidan xomashyo valigining aylanish tezligi arrali silindrning aylanish tezligidan ancha kam bo'ladi. Ish kamerasining devorlariga bo'lgan bosim xomashyo valigining zichligiga bog'liq. Xom ashyo valigi qancha zich bo'lsa, me'yoriy bosim ham shuncha katta bo'ladi.

Xomashyo valigining zichligi esa ta'minlagichdan tushayotgan chigitli paxtaning va xomashyo kamerasidan chiqayotgan chigitlarning miqdoriga bog'liq. Xomashyo valigining aylanish tezligi ish kamerasining ko'ndalang qirqimidagi har xil hududlarida har xil bo'ladi.

### Fo'lali (valikli) jinlash.

Valikli jinlash mashinalarida ingichka tolali chigitli Paxta ishlanadi. Bu mashinaning asosiy ish organi – **tukli valik** hisoblanadi.

Chigitli Paxta aylanib turgan ish valigiga uzatiladi, valik sirti esa tolani o'ziga yopishtirib olib qo'zg'almas pichoq ostiga tortib kirgizadi, shunda chigit qo'zg'almasi pichoq tig'iga tortilib qoladi. Tortilish natijasida bir qism chigit toladan ajraladi, asosiy qism tola esa aylanib turgan bolg'achalar urgandagina chigitdan uziladi. Bolg'acha urganda faqat bir qism tolalar chigitdan ajraladi, qolganlari esa navbatdagi bolg'achalarning urilishi bilan chigitdan uziladi.

Uzun tolali Paxta navlarining tolasini tozalash, VTM tola tozalagichi KVM

kondensori ta'minlagichli ON-6,3 tola tozalagichdan iborat batareyali tozalagichlarda, o'zgaruvchan (boshqariladigan) texnologik jarayon asosida olib boriladi.

Paxtaning dastlabki iflosligiga qarab standart talablariga javob beradigan tolani ishlab chiqarish uchun u qyidagi texnologiya bo'yicha tozalanadi:

Dastlabki ifloslanganligi 16% ni va undan ortiqni tashkil etganda (shuningdek, qiyin tozalanadigan seleksion navlar uchun) mavjud bo'lgan 4 ta tola tozalagich harakatga keltiriladi:

-iflosligi 8% dan 16% gacha bo'lsa VTM + KVM kondensori q (ON-6,3) ta'minlagichli q (ON-6,3);

-iflosligi 3% dan 8% gacha bo'lsa – VTM + KVM kondensori ta'minlagichli (ON-6,3);

-iflosligi 3% gacha bo'lsa KVM kondensori ta'minlagichli (ON-6,3).

Ko'rsatib o'tilgan tozalash usullarini amalga oshirish uchun VTM tola tozalagichlarini texnologik jarayonida to'xtatish yo'li bilan, ON-6,3 ni esa to'xtatish va yo'llovchi kurakcha holatini o'zgartirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Chigitdan ajratilgan tolada (ayniqsa mashinada terilgan chigitli paxtaning tolasida) turli xil iflosliklar va nuqsonlar bo'lishi mumkin. Bu esa to'qimachilik fabrikalarida tolani ko'proq g'altaklashib nobud bo'lishiga olib keladi. Shu sababli paxta tozalash zavodlarida tola turli xil iflosliklardan tozalanadi. Tolani tozalash mashinalari tozalash usuliga qarab, mexanik, aeromexanik va aerodinamik turlarga bo'linadi. Tolani mexanik usulda tozalaydigan SNITI, IV-1, VOB-1, VCHB-2, GR-2 rusumli mashinalar, aerodinamik usulda tozalaydigan OVPA, ZOVP rusumli mashinalar keng tarqalgan.

**Jinni ishlatalish qoidalari** – texnologik jarayonda ish uzluksiz oqim asosida bajarilishi, batareyadagi jinlarning ish unumi yuqori bo'lishi, yuqori sifatli mahsulot chiqarilishi va batareyada ishlayotgan hamma mashinalarning ishi bir-biri bilan bog'langan bo'lishi lozim.

Mashinalarda ishlovchilar batareyadagi mashinalardan samarali foydalanishi, mashinalarning bekor turish vaqtini kamaytirishi va ularning ishlab chiqarish

quvvatidan iloji boricha ko'proq foydalanishga intilishlari kerak. Hamma vaqt ish qismlarini rostlab turish va tuzatish ishlarini puxta olib borish bilan birga ish organlarining orasidagi bo'shliqni tekshirib turish lozim.

Mashinaning hamma qismlarini va detallarini yaxshi holatda tutish va ish qismlarining ish vaqtida edirilishiga qarab turish, ayniqsa, arralarga va arradan tola ajratadigan apparatlarning ishiga alohida e'tibor berish juda zarur.

Batareyadagi har qaysi jinga va hamma mashinalarga bir tekisda paxta etkazib berib turish kerak. Xomashyo aylanuvchi qismining harakatiga, holatiga va tarkibiga, tekisligiga, zichligiga (tiqilib qolmasligi uchun) shuningdek, ish kamerasidan tushayotgan chigitga, uning tekis yalang'oshlanishiga, tukliligiga, o'lik ajralish darajasiga va uning sifatiga hamma vaqt qarab turish va o'z vaqtida kerakli choralar ko'rish juda zarur ishdir. Tola ajratish jarayonida yuqori sifatli tola olish, nuqsonli tola chiqishiga yo'l qo'ymaslik, tolanning eng ko'p chiqishiga va ish jarayonida tolanning isrof bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, shu bilan birga yuqori ish unumiga erishishga harakat qilish kerak.

### **3.4. Qanorni saqlash va qayta ishlash texnologiyasi**

Tarixan, qanor ming yillar davomida qog'oz qilish uchun ishlatilgan. Qadimgi Xitoyda qanor tolesi asosan qog'oz varaqlarini ishlab chiqarish uchun ishlatilgan. Birinchi nus'halar Injil qilingan qanor qog'oz va Amerika Konstitusiyasi bu qanor qog'ozga yozilgan edi. Qanor qog'oz ko'proq edi parchalanishga chidamli, kuchli, ayniqsa nam bo'lganda, kamroq yog'ochga asoslangan qog'ozga qaraganda sarg'ayishga moyil. Oddiy yog'och qog'oz bilan solishtirganda, qanor qog'oz yuqori kuch kabi ajoyib fazilatlarga ega, uzunligi va nozikligi. Uzun qanor bast tolalaridan, kislota bo'limgan mukammal sifatli qog'oz olinadi. Qanor ishlab chiqarishda qog'oz, yog'ochga asoslangan qog'ozga qaraganda kamroq kimyoviy moddalar ishlatiladi. Uni sarg'aymaydi, mo'rt va vaqt o'tishi bilan parchalanmaydi, oddiy qog'oz kabi qanor kiyimi, avvalambor, dorivor o'simlik xususiyatlariga ega bo'lgan mato. To'qimachilik navlaridan tayyorlangan matoning afzalligi – bu kiyimning "визиткаси" ni yaratadigan bir nechta muhim

fazilatlarning kombinasiyasi. Qulay va gigiyenik kiyim ishlab chiqarish uchun tabiiy xomashyo sifatida qanorning texnik navlari qo'llaniladi, ular bir tomonidan dorivor o'simlik xususiyatlariga ega, ikkinshidan, tarkibida bo'lмаган qanor poyalari 2 qismdan iborat, tola va pulpa. Qanor tolasi (bast) deyarli har qanday kiyim uchun mato tayyorlash uchun ishlatilishi mumkin. Qanor matolari juda bardoshlidir. Aslida, birinchi jinsi (Levi) chidamlilik uchun qanordan qilingan.

Hamir materiallari (hemra) yumshoq va bardoshli, bardoshli va doimiy foydalanish bilan qanor matosining ajoyib xususiyatlari yanada yaxshilanadi. Materialning chidamliligi qanor tolalarining mahsus tuzilishi bilan ta'minlanadi: tashqi ta'sirlarga qarshilik, mato deformasiyalanmaydi va 90 daraja haroratda yuvilganda yomonlashmaydi, kiyish paytida shaklini yo'qotmaydi.

Bu tolani etishtirishning tezroq va samaraliroq usuli. Tabiiy tolalardan biri bo'lgan qanor tolasi oq rangli, yumshoq, juda toza va pishiq bo'ladi. Qop – qanorbor materiallar to'qishda, arqon va qanor iplar tayyorlashda, texnikaviy materiallar (brezent va boshqalar), mebelbop materiallar va gilamlar to'qishda qanor tolasidan keng foydalaniladi. Undan tashqari, chiqindi yog'ochlikdan plitalar tayyorlanib, qurilish va mebel sanoatiga berilmoqda.

Doimiy foydalanishda qanor to'qimasi faollashadi va toksinlarni zararsizlantirish qobiliyatini saqlaydi, patogen mikroblarning rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi, teridagi metabolik jarayonlarga halaqit beradigan sharoitlarni yaratmaydi. Gigiyyena tabiiy membrananing xususiyatlari bilan ta'minlanadi: tabiiy mato kiyim ostida tananing yuzasida "issiqxona" ta'sirini yaratmaydi, bu esa terining erkin nafas olishiga imkon beradi. Qanor mato sovuq mavsumda issiq havoda va girotermiyada tananing haddan tashqari qizishini yo'q qiladi.

Qanor matolari ishlab chiqarish texnologik jarayonida qanor qanday yig'iladi: butalar bir-biriga juda yaqin o'sadigan maydonga barglar tushguncha tegmaydi. Keyin qanor o'rildi va yomg'ir bilan yuvilgan maydonda yotish uchun qoldiriladi. Shu vaqt ichida uni har tomonidan quyoshga ta'sir qilish uchun bir marta aylantiriladi. Bu vaqt ichida tola yumshaydi, minerallar va azot tuproqqa qaytadi. Bunga "retting" deyiladi va bu bosqish tugagandan so'ng, poyalar tolalarni


pulpadan ajratib turadigan mashina tomonidan yig'iladi. Bunday mashinalarga ega bo'lishdan xursand bo'lishimiz kerak: ilgari u ko'p soatlik mashaqqatli mehnatni talab qiladigan qo'l bilan qilingan.

Qanor tolasining ajoyib xossasi – gigroskopiklik xossasi bor: u havodagi namning ma'lum qismini o'ziga olib, ortiqcha namlikni o'zi orqali o'tkazmay ushlab qoladi. Bundan tashqari, qanor tolasida mayda tukchalar bo'lmaydi. Shuning uchun bunday toladan ishlangan qoplarga solingan qand, un va sement kabi mahsulotlar namgarchilikda ham quruq turaveradi hamda ifloslanmaydi.

Qanor ishslash texnologiyasini takomillashtirish, eng yangi texnikani joriy qilish, sermehnat ishlarni mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish sohasida ham katta ishlar qilinmoqda.

Qanorpoyani ajratib olinadigan tola miqdorini oshirish va sifatini yanada yaxshilash, mashinalarning ish unumini oshirish va ularni takomillashtirish kabi ishlarni muvafaqiyatli bajarish uchun qanor zavodlarida ko'pgina tadbirlarni amalga oshirish kerak bo'ladi. Bu tadbirlar ichida eng muhim qanor zavodlari uchun malakali bakalavr, magistrlar tayyorlash hamda qanor zavodi mutaxassislarini nazariy va texnikaviy saviyasini tinmay oshirib borishdir.

Qanor gulhayridoshlar oilasiga kiradigan tolali bir yillik o'simlikdir. O'sish sharoitiga qarab, qanorpoyaning balandligi 5 metrgacha, yo'g'onligi esa 5 mm dan 25 mm gacha bo'ladi. Qanorning vatani Janubiy Afrika va Amerika bo'lib, u erlarda hozir ham yovvoyi holda o'sadi. Qanor o'simligi Hindiston, Pokiston, Xitoy, Afg'oniston, Eron, Kuba, Braziliya, Indoneziya, Sudan, Yava orollari va Afrika mamlakatlarida qadimdan ekilib, sanoat ahamiyatiga ega bo'lib kelgan. Shimoliy Kavkazda 1924 yili tajriba uchun 23 ga erga qanor ekildi va yaxshi hosil olindi. O'zbekistonda 1925 yili 275 ga erga qanor ekildi. Qirg'iziston, Qozog'iston, Shimoliy Kavkaz, Turkmaniston, Janubiy Ukraina va boshqa joylarda ham qanor o'simligi ko'plab ekila boshlandi.



**1-rasm. Qanor o'simligi, uning bargi, guli va ko'sagining umumiy ko'rinishi.**

O'zbekiston iqlimi qanor tolsi urug'larning pishib etilishi uchun juda qulay ekanligi ma'lum. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasida, ayniqsa mamlakatimizning Toshkent viloyatida qanor ekish maydonlari va hosildorligini yildan-yilga oshirib borish imkoniyatiga egadir.

Qanor ekishning dastlabki yillarda qanorpoyadan tola olish jarayoni oddiy mashinalar bilan jihozlangan kustar tipidagi kichkina korxonalarida bajarilar edi. Ivitilgan poyadan tola ajratadigan mashinalar bo'limganligi sababli barcha ishlar qo'l mehnati yordamida amalga oshirilar edi. Natijada 20-30 kg uzun tola ajratilar edi.

Izlanuvchi olimlar tomonidan qanorpoyadan tolani ajratib olish uchun yangi mashinalarni yarata boshladi.

Hozirda umumiy qanorning 90% dan ortig'i zavodlarga poya tarzida emas, balki po'stloq holida topshirilmoqda. Shu munosabat bilan po'stloq ishlaydigan

mashinalar yaratila boshladi. 1963 yilda ivitilgan ko'k po'stloqdan tola ajratadigan ALV rusumli titib-yuvadigan keyinroq AAV-M rusumli mashinalar yaratildi. Ko'p yillik ilmiy izlanishlar natijasida po'stloqni ishlashdan tushgan tolali chiqindilarni ishlaydigan MKV rusumli mashina yaratildi.

**-jadval**

### **Qanor tolasining xossalari**

Nº	Xossalari	Birlamchi tola	Ikkilamchi tola
1	Poyadagi tola miqdori, %	30-56	70-44
2	Pishiqligi, kg	31,3	23,8
3	Metrik nomeri, N <sub>m</sub>	117	336

Tolaning pishiqligi hosilni yig'ish muddatiga bog'liq. Ilgariroq yig'ilgan poya tolasining pishiqligi kam bo'ladi, kechroq yig'ilib olingan sari pishiqligi ortib boradi. Qanor poyasida 24% gacha tola bo'ladi.

### **Qanor poya va po'stlog'ini ivitish hamda quritish.**

#### ***Qanorni ivitish***

Qanor tolesi po'stloq ichida pektin, parenxima, kambiy, epidermis va boshqa to'qimalar bilan yopishib o'ralgan holda yotadi. Tolani ajratish uchun eng oldin tolani yopishtirib yotgan moddani ketkazish, keyin tolani tozalab yuvish kerak. Qanorpoya yoki po'stloq ma'lum usullar bilan ivitilganda tolalarni bir-biriga yopishtirib turgan moddalar erib ketadi, tola tutamlari ajraladi. Qanor hozir, asosan, biologik usulda ivitilmoqda.

Ivitish texnikasining bajarilishiga qarab ivitish bir qancha usullarga bo'linadi.

Ivitishda foydaniladigan suv yoki suyuqlikning issiqligiga qarab sovuq suvda ivitish va issiq suvda ivitish xillari bor. Sovuq suvda ivitilganda, odatda, ariq, daryo suvlaridan foydalanib, issiqli gi 26°C-30°C dan oshmaydi. Isitilgan suvda ivitilganda esa ivish bir muncha tezlashadi. Bu usulning qo'llanilish ivitish xo'jaligining hajmini kamaytiradi. Shuning uchun bu usulda qanor zavodlarida foydalanish yaxshi natijalar bermaydi. Issiq suvda ivitishdan chiqqan suyuqlikni tiklashning dastlabki davrlarida bakteriyali quyqa kam bo'lganligi uchun

15-20 sutkadan keyin etiladi, keyinchalik suyuqlikning etilish 2-3 kunga qisqaradi.

Sovuq suvda ishlatishdan suyuqlik dastlabki davrda 20-30 sutkada, keyinchalik 3-4 kunga qisqargan davrda etiladi.

Suyuqlikning dastlabki tiklash vaqtini qisqartirish mumkin. Buning uchun suyuqlikda ishqoriy moddalar (ammiak, soda) va mahsus kislota parchalovchi bakteriyali achitqi qo'shiladi. Qo'shish me'yori  $1\text{ m}^3$  suyuqlikka ammiyakning suvdagi 30% li eritmasidan 1-1,5 litr, 30% li sodadan 0,75 kg olinadi.

Regenerator kontaktorlari yoki uzluksiz sistemada bo'lishi mumkin.

Kontakli regenerator – suyuqlik idishi bo'lib (резервяп), unga ishlatilgan suyuqlik oqib tushadi. Uning hajmi ivitish kameralarining 75-100% hajmiga teng bo'lishi kerak. Sovuq suvda ivitishda regenerator vazifasini chuqurligini 3 m, devorlari tosh, quyuq loy bilan qoplangan oddiy chuqur bajarish mumkin.

Issiq suvda ivitishda regenerator g'isht, betondan yoki temir-betondan to'rtburchak, dumaloq shaklda, qopqoqli qilib yasaladi, chuqurligi 2-3 m bo'ladi. Regeneratorda suyuqligning kislotalik darjasasi 0,4 sm kubdan oshiq bo'lmasa, u tiklangan bo'ladi va ishlatishga tayyor hisoblanadi.

Regeneratorlardan to'g'ri foydalanganda suyuqlikni 30-40 marta qayta tiklab ishlatish mumkin. Vaqt o'tishi bilan tiklanishni sekinlashtiradigan ba'zi tuzlar (karbonat va boshqa) to'planadi Buning oldini olish uchun bir qism suvni kanalizasiyaga chiqarib, o'rniga toza suv quyib turish lozim. Regeneratorni vaqtiga bilan ortiqcha quyqadan tozalab turiladi.

Uzluksiz sistemadagi regeneratorda suyuqlik 2 fazada tiklanadi. I – faza: – mahsus rezervuar biodiffuzorda faol bakteriyali achitqi (tiklash idishidagi quyqa) suyuqlik bilan aralashtiriladi.

II – faza: – biodiffuzordan chiqqan suyuqlik tindirgish idish – kontaktli kichik regeneratorga tushadi. Unda quyqa cho'kadi yoki suyuqlikning achish jarayoni tugaydi.

Bu regeneratorda suyuqlik dastlabki davrda 2-5 sutka, quyqa etilgandan so'ng 1 sutkada tiklanadi.

### **Biologik va kimyoviy usullarda ivitish.**

## **Ivitish jarayonini tezlashtirish usullari.**

Ivitish jarayonini tezlashtirish usullarining asosiy maqsadi, pektin moddalarini parchalovchi bakteriyalarning yashashi uchun yaxshi sharoit yaratish va ivitish suyuqligining kislotalilik darajasini me'yorida tutib turishga asoslangan. Bulardan tashqari, ivitish jarayonini tezlashtirish hisobiga ivitish baklari va hovuzlarini qurilishiga, ularni foydalanishda hamda ivitishdan chiqqan suvni tozalash uchun ketadigan harajatlarni kamaytirish asos qilib olingan va ular bir necha usulga bo'linadi:

### **Ivitishni kimyoviy usul bilan tezlashtirish.**

Ivitish – koagulyasiya (lot. dan. koagulatio-koagulyasiya, quyuqlashuv) koagulyasion strukturalar hosil bo'lishi bilan yopishish kuchlari ta'sirida dispers sistemalarining kichik zarrachalarini yirik agregatlarga yopishishining fizik-kimyoviy jarayonlari. Koagulyasiya kolloid eritmada yog'ingarchilikka yoki qattiqlashishga olib keladi. Koagulyasiya kolloid eritmani qattiq faza va tarqalgan muhitga delaminasiya qilish va minimal energiya holatiga erishish yoki mahsus reagentlar (koagulantlar yoki flokulyantlar) yordamida sun'iy ravishda induksiya qilish bilan spontan (qarish) bo'lishi mumkin.

Koagulyasiya – bu birlamchi zarralarni bir-biriga yopishtirib, dispersiya darajasini va tarqoq tizim zarralari sonini kamaytirish jarayoni. Koagulyasiya natijasida odatda dispers fazaning cho'kishi (sedimentasiyasi) yoki hech bo'limganda birlamchi dispers tizim xususiyatlarining o'zgarishi sodir bo'ladi. Bu usulda tezlashtirishda sovuq yoki issiq ivitish suyuqligiga kimyoviy moddalar (ammoniy sulfat, ammoniy karbonat, ammoniy bikarbonat) qo'shiladi. Flokulyasiya – koagulyasiyaning bir turi bo'lib, unda dispers fazaning kattalashgan zarralari yirik bo'sh flokulyar agregatlar – flokulalar tez joylashishga yoki yuzaga chiqishga qodir. Sintetik polimer materiallar, xususan poliakrilamid, ko'pincha flokulyant sifatida ishlatiladi. Polimer makromolekulalari bir vaqtning o'zida dispers faza zarrachalari orasida bog'lovchi ko'priklar hosil qilish uchun bir necha dispers zarrachalarga adsorbsiyalanadi, xuddi bu zarrachalarni yirik aggregatlarga yopishtiradigandek. Anorganik flokulyantlardan faol silikat kislota ishlatiladi.

Ko'priq mexanizmi va flokulyantlar makromolekulalarining kattaligi tufayli hosil bo'lган agregatlarning katta sochiluvchanligi flokulyasiyani an'anaviy koagulyasiyadan ajratib turadi, bunda zarrachalarning bevosita agregasiyasi sodir bo'ladi. Tabiiy suvlarni tozalashda yuqori molekulali flokulyantlar ko'pincha koagulyantlar bilan birgalikda ishlatiladi: flokulyantlar koagulyantlarni kiritish natijasida kelib chiqadigan mikrofloralarni "shoklash". Shu bilan birga mikroflorlar yirik aggregatlarga birlashtiriladi, ularning cho'kishi ancha tez davom etadi. Koagulyasion tuzilmalar dispers tizim o'zining aggregativ barqarorligini yo'qtoganda hosil bo'ladi, dispers fazaning etarli miqdori bilan dispers tizimning butun hajmini mustahkamlash ta'minlanadi. Suyuq tarqalgan muhitni "davolashga" qodir bo'lган kolloid dispers fazaning tegishli tarkibi juda kichik bo'lishi mumkin (ayniqsa keskin anizometrik zarralar holatida), masalan, bentonit gillarining og'irligi bo'yicha atigi bir necha foiz va filamentli zarralar uchun juda kam.

Koagulyasion tuzilmalarning xarakterli xususiyati, ularning nisbatan past kuchi bilan birga, ularning mexanik ta'sirlarga qaytarilishi-mexanik shikastlanishdan keyin o'z-o'zidan tiklanish qobiliyati (ko'chma tarqalgan muhitda); bu xususiyat tikotropiya deb ataladi. Koagulyasion dispers strukturalarni laklar, bo'yoqlar, polimerlarning pigmentlari va to'ldiruvchilari hosil qiladi. Tiksotropik tuzilmalarning tipik misoli elektrolitlar ta'sirida ularning koagulyasiyasi paytida loy dispersiyalarida paydo bo'ladigan fazoviy panjara.

Koagulyasiya nazariyasi (M. Смолуховский) quyidagi tushunchalar asosida ishlab chiqilgan: dispers fazaning zarralari bir-biridan mustaqil ravishda Braun harakatini bajaradi, 2 ta zarracha yaqinlashganda, ularning markazlari orasidagi masofa ta'sir doirasi radiusi deb ataladigan  $D$  ga teng bo'ladi. taxminan zarrachalarning radiuslari yig'indisiga teng, bu ularning bevosita aloqasiga mos keladi. Bu masofada ular paydo bo'ladi (darhol, sakrashda!) zarralar orasidagi o'zaro ta'sir kuchlari, natijada ularni birlashtirish imkoniyati yaratiladi. Koagulyasiya natijasida faqat 2 ta zarracha o'zaro ta'sir qiladi, chunki ko'proq zarrachalarning to'qnashish ehtimoli juda kichik. Shunday qilib, yakka zarrachalar o'zaro to'qnashib, qo'shaloq, bir-biri bilan qo'shaloq, yakka va hokazo uchlik hosil

qiladi. Koagulyasiya jarayonining ushbu namoyishi uni bimolekulyar kimyoviy reaksiyalar nazariyasiga rasmiy ravishda kamaytirishga imkon beradi.

Joylangan xomashyo massasiga nisbatan 1% miqdorda ammoniy sulfat yoki 1,5-2% ammoniy karbonat qo'shiladi. Bunda ivitish jarayonini 35-48% tezlatadi va yuqori sifatli, yumshoq, ochiq rangli yaxshi ajraladigan tola olinadi. Bu kimyoviy moddalar pektin parchalovchi bakteriyalarga qo'shimcha ozuqa manbai hisoblanadi. Biroq, ivitishdan chiqqan suvni ko'p marotaba qayta ishlatib bo'lmaydi va tozalash inshootlariga yuborib tozalash zarur.

### **Ivitishni bakteriyali achitqilar qo'shish yo'li bilan tezlatish.**

Ivitishda pektin parchalovchi moddalar boshlang'ish fazada kam bo'ladi va oxirgi fazada ko'payadi. Poya yoki po'stloqni ivitishga tashlash vaqtining o'zida pektin moddalarini parchalovchi ko'p miqdorda faol bakteriyalar achitqi sifatida tashlansa, ivish birmuncha qisqaradi. Achitqi bakteriyalar uchun konsentrant hisoblanadi: 1 g. quruq achitqida 250 ming bakteriya sporasi mavjud. Mikrobiologiya instituti laboratoriyasida quruq va suyuq holda achitqilar tayyorlamoqda. Ciostridium felelneum – bakteriyasi zig'ir poyasini sovuq suvda ivitishda qo'llanilganda, ivitish 20-25% ga, uzun tola chiqishi 1-3% ga va tola sifati yaxshilangan.

*Fermentlar qo'shish yo'li bilan ivitishni tezlashtirish.*

Pektin moddalari bakteriyalarning oziqlanib va ulardan chiqqan fermentlari natijasida erib parchalanadi. Shu sababli etarli fermentlar bo'lgan sharoitda ivish bakteriyalarsiz ham bo'lishi mumkin, etarli fermentlar bo'lgan sharoitda ivish bakteriyalarsiz ham bo'lishi mumkin, etarli fermentlar bo'lganda ivish 2-3 marotaba tez bo'lishi mumkin. Biroq, po'stloq va parenxima to'qimalari yog'och o'zagida ajralmay qoladi va shu sababdan bu usulda issiq suv bilan bilan yuvish va titish tavsiya etiladi.

Bunday fermentlarni kartoshka, крапива каби, ferment ajratuvchi faol bakteriyalar ko'p bo'lgan, o'simliklarni o'stirib, ulardan konsentratlar tayyorланади ва qo'llaniladi.

## **Tiklangan (regenerasiyalangan) suyuqlikda ivitish yo'li bilan tezlashish**

Qanorni ivitib bo'lgandan so'ng chiqarib tashlanadigan suyuqlikni mahsus idishda (regeneratorda) ma'lum muddat ushlab turilsa, uning kislotalik darjasи kamayadi va nolga tenglashadi. Bunga ivitish suyuqligini tiklash deyiladi. Bunday suyuqlikdan yana foydalanish mumkin va ivitish jarayoni tezlashadi. Ivitishdan shiqqan suyuqlikda kislota parchalovchi bakteriyalar kam bo'lgani sababli uni saqlab bu bakteriyalarni ko'paytirish zarur. Bu bakteriyalar suyuqlikdagi organik kislotalarni parchalaydi. Ko'p marotaba qayta foydalanish natijasida ivitish suyuqliklarining nordonlashishida ko'p miqdorda pektin va kislota parchalovchi bakteriyalar hamda ularning fermentlari to'rlanadi. Natijada ivish jarayoni 35-50% tezlashadi hamda suyuqlik qayta tiklanadi.

### ***Ishlatilgan suyuqlikni tiklash.***

Tiklashda – ivitishdan chiqqan suyuqlik alohida suyuqlik idishga (rezervuarga) – tiklash yoki achitish idishiga (regenerator yoki бродилка) qo'yiladi. Suyuqlik bu idishlarning bir chetidan ikkinchi chetiga sekinlik bilan o'tadi. Bu vaqtda kislotalarda o'z-o'zidan qisman yoki to'liq achish ro'y beradi, erimagan qismlari cho'kib, idish tagida quyqa hosil qiladi. Bu quyqada kislota va pektin moddalarini parchalaydigan bakteriyalarning sporalari to'plangan bo'ladi, shuning uchun bakteriyalar achitqi hisoblanadi. Quyqa qancha ko'p bo'lsa, tiklanish shuncha tezlashadi.

Qanor zavodlarida qanorpoya va po'stloqni ishlash vaqtida yuqori namlikdagi uzun tola va tolali chiqindilar olinadi. Ularni keyingi jarayonlarda ishlash uchun quritish kerak. Shuning uchun qanor zavodlarida tola va tolali chiqindilarni quritish jarayoni qanorni ishlash texnologik jarayonlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonning to'g'ri va rasional uyushtirilishi uchun quritish jarayoni quritiladigan mahsulotning xususiyatiga va sifatiga qarab uyushtirilish kerak. Uzun tola va tolali chiqindilar tabiiy va sun'iy usullarda quritiladi.

### **Tolalarni tabiiy usulda quritish.**

Tolalarni tabiiy usulda quritish asosan havoning tabiiy sharoitiga bog'liq bo'lib, mavsumiy xarakterda bo'ladi. Undan tashqari, bu usul sermehnat bo'lib, tashish vositalari hamda katta-katta quritish maydonlari talab qilinadi.

Qanor zavodlarida tabiiy usulda uzun tola, tolali chiqindilar, ivitilib tayyor bo'lgan past navli va chigal poyalar quritish maydonlarida quritiladi. Keyingi yillarda bu usulda quritish tobora kamayib bormoqda.

### **Savollar:**

1. Urug'lik uchun ajratilgan dala qanday talablarga javob berishi kerak?
2. Urug'lik paxtani terish qachon boshlanadi?
3. Chigit nima uchun linter va delinterlanadi?
4. Ekiladigan o'rta tolali g'o'za navi chigitida necha foiz tuk qolishi kerak?
5. Urug'lik chigit nima uchun dorilanadi?
6. Paxtani jinlash qaysi tartibga asosan amalga oshiriladi?
7. Paxtani jinlashda qancha miqdorda tolasi olinadi?
8. Nima uchun uzun tolalilarni Valikli jinda tozalanadi?
9. Paxtani jinlashda uning namligi qanday ahamiyatga ega?
10. Jinni ta'minlagish qanday vazifani bajaradi?

### **Adabiyotlar:**

1. Morten C. Meilgaard, Gail Vanse Civille, B. Thomas Carr-Sensory Evaluation Teshniquyes – 4th edition, USA 2007
2. Usmonov G. Paxta tolasi sanoati korxonalarida mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligini ta'minlash, O'quv qo'llanma. – T.: Islom universiteti, 2003-256 b.
3. ISO 13302 Sensory Analysis – Methods for assessing modifications to the flavour of foodstuffs due to packaging, 2015 y.
4. Usmonov G. Paxta tolasi sanoati korxonalarida mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligini ta'minlash, O'quv qo'llanma. – T.: Islom universiteti, 2003-256 b.

5. Xlorok/httr://ru.wikiredia.org/wiki.
6. Исследование методов хранения хлопка при его складировании на заготпункте. (Промежуточный отчет)/ТИТЛП: Руководитель темы Хаджиев М.Т. – 12.04.87; – Ташкент, 1987. – 85 с.
7. Кадыров Б.Г. Разработка, оптимизація технологии и процессов подготовки хлорка-сырца к хранению: Дис...докт. техн. наук: 05.19.05; - Защищена 22.03.93; Утв. 15.10.93; -Кострома, 1993. -293 с. – Библиогр. 176 назв. –Рус.
8. Азизходжаев У.Х. К вопросу механизации формирования бунтов хлопка-сырца// Хлопковая промышленность (Ташкент). – 1965, №1. – С.16.
9. Ямрольский А.Я. Влияние влажности хлопка-сырца на его основные механические свойства//Науч.труды/СНИИХпром. -1962. – №4. – С. 3-39.
10. Федоров П.Ф. Исследования по качеству сырья/СНИИХпром, лаборатория сырья, темы №1, 1969.
11. Кадыров Б.Г., Разыков Р.С., Якубов Д. Исследование изменений в хлопке при его хранении//Хлопковая промышленность. Ташкент -1984. -№4 – с.17.
12. Механизированная линия для поточной приемки хлопка на заготовительных пунктах и хлопковозаводах: Отчет о НИР (заключ.)/ТГСКБ по хлопкоочистке; Рук. работы Коган М.Н.; л – Т., 1975. – 125 с.
13. Юханов Ю.А. Уплотнение хлопка//Хлопковая промышленность (Ташкент). -1973. -№2. – стр.12-14.
14. Ходжиев М.Т., Байханов Б.А. Изучение влияние процесса уплотнения на состояние хлопка-сырца при его длительном хранении//Хлопководство. Т. – 1995. №5-6. – С.32.
15. Степанов А.С. Технология хлопчатобумажного производства /М., Легкая индустрия, 1975. -64 с.
16. “USTER STATISTICS 2007” [www.uster.com](http://www.uster.com)

## **4-Mavzu: Moyli urug'larni saqlash jarayonlarini ilmiy asoslangan holda tashkil etish**

**Reja:**

- 4.1. Moyli ekinlarni saqlash va dastlabki qayta ishlashning xalq xo'jaligida tutgan o'rni**
- 4.2. Moyli ekinlarning tasnifi va ularni tayyorlash**
- 4.3. Moyli urug'larni saqlash va dastlabki qayta ishlashda ro'y beradigan jarayonlar**

**Tayanch iboralar:** yog'-moy sanoati, fanning maqsadi, texnologik sxema, texnologik liniya, texnologik jarayon, texnologik rejim, presslash usuli, ekstraksiya usuli, rivojlanish bosqichlari, xalq xo'jalikdagi o'rni, endosperm, mag'iz, to'yingan yog' kislotalar, linolen kislota, linol kislota, to'yinmagan yog' kislotalar, uglevodlar, qobiq, holva, kunjara, shrot.

- 4.1. Moyli ekinlarni saqlash va dastlabki qayta ishlashning xalq xo'jaligida tutgan o'rni**

Qadimgi davrlarda ham odamlar moy olish mumkin bo'lgan o'simliklardan foydalanganlar. Ko'rinishidan, dastlab ular yog' o'simliklaridan foydalanishni boshladilar, ularning mevalari va urug'larida juda ko'p ajratilgan moy mavjud. Ehtimol, bu zaytun va palma yog'i bo'lib, perikarpning suvli pulpasiga ozgina bosim bilan etuk mevalardan erkin oqadi. Asta-sekin foydali yovvoyi o'simliklar muntazam ravishda etishtiriladigan qishloq xo'jaligi ekinlariga, so'ngra yog'- moy sanoatiga aylandi.

Hozirgi vaqtida yangi moyli yovvoyi o'simliklardan sanoatda foydalanish ularni madaniyatga kiritmasdan mumkin emas. Moyli urug'lar orasida asosiy o'rinni xususiyatlari bo'yicha asl yovvoyi o'simliklardan ustun bo'lgan madaniy o'simliklar egallaydi.

O'simlik moyi texnologiyasining rivojlanishi moyli urug'lar va ulardan olinadigan moylarning xususiyatlarini o'rganishdan ancha oldinda edi. O'simlik

moylari bir necha ming yillar davomida ishlatalganiga qaramay.

Ishlab chiqarish hajmiga ko'ra, dunyodagi asosiy xomashyo sabzavotli yog'lar orasida soya, turli xil palma daraxtlari, kungaboqar, raps, paxta, eman, zaytun, kunjut, asrip va boshqalar mavjud. Texnik maqsadlar uchun zig'ir, kastor yog'i, tung, perilla, lallemantium va kenevirdan yog'tayyorlanadi.

Mamlakatimizda iste'mol qilinadigan yog'lar asosan kungaboqar urug'lari, chigit moyi, soya urug'laridan olinadi; boshqa moyli urug'larning urug'lari (zig'ir, raps, maxsar va kanop) nisbatan kichik hajmda qayta ishlanadi.

Dunyoda iste'mol qilinadigan o'simlik moylarini ishlab chiqarishda birinchi o'rin soya yog'iga, ikkinchisi palma yog'iga, uchinshi va to'rtinchisi kungaboqar va raps urug'iga tegishli. Yong'oq, paxta va zaytun moylari iste'mol qilinadigan o'simlik moylarini umumiy ishlab chiqarishda katta rol o'ynaydi.

Moyli o'simliklarning kimyoviy tarkibi o'simlik moyli o'simliklardan sanoatda kompleks foydalanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun moyli urug'larni yig'ish, o'rim-yig'imdan keyin qayta ishlash, saqlash va qayta ishlashning asosiy muammosi va maqsadi o'simlik moyli xomashyoning barcha qimmatli tarkibiy qismlarini tayyor mahsulotda maksimal darajada saqlashdir.

O'zbekistonda asosiy yog'-moy sanoati XX asr boshlaridan rivojlandi. 1922 yilda Yangiyo'l shahrida, 1930 yilda Farg'ona shahrida yangi mashina va uskunalar bilan jihozlangan moy zavodlari qurilib ishga tushirildi.

1935 yilda Kattaqo'rgondagi moy zavodida ekstraksiya usulida moy olish joriy etildi.

1942-45 yillarda Rossiyaning urush bo'layotgan shaharlardan 8 ta moy zavodi asbob-uskunalari bilan O'zbekistonga ko'chirilib keltirildi.

1948 yilga kelib, moy zavodlaridagi gidravlik presslar uzlusiz ishlaydigan shnekli presslar bilan almashtirildi. Buning natijasida moy zavodlaridagi og'ir qo'l mehnati kamayib ishchilar endi qurilmalarni nazorat qiladigan va boshqaradigan bo'ldilar. 1954 yilda Buxoro shahrida press usulida moy oladigan zavod ishga tushirildi.

1960 yilga kelib moy zavodlarida ishlab chiqarilgan moyning 46% ni

ekstraksiya usulida, 54% ni presslash usulida olingan moy tashkil etdi.

